

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

O`ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI

**BITIRUVCHI KURS TALABASI
FOZILOVA MOHINUR IXTIYOROVNAning**

**«POLISEMANTIK FE'LLARNING MATNDAGI IFODASI»
mavzusidagi**

***5 120 100 –Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili) yo`nalishida bakalavr
akadem darajasini olish uchun yozgan***

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

(2016-2017- o`quv yili)

Ilmiy rahbar:

**filologiya fanlari nomzodi, dotsent
ASADOV T.H.**

Buxoro – 2017

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
O`ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI**

**BITIRUVCHI KURS TALABASI
SA'DULLAYEVA DILBAR XAYRULLO QIZIning**

**«POLISEMANTIK FE'LLARNING MATNDAGI IFODASI»
mavzusidagi**

***5 120 100 –Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili) yo`nalishida bakalavr
akadem darajasini olish uchun yozgan***

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

(2016-2017- o`quv yili)

**Ilmiy rahbar: filologiya fanlari nomzodi, dotsent
ASADOV T.H.**

**Rasmiy hakam: filologiya fanlari nomzodi, dotsent
QILICHEV B.E.**

Buxoro – 2017

«Ma'qullayman» _____
Ilmiy rahbar: f.f.nomzodi,
dotsent T.H.Asadov

« » _____ 2016-y.

«Tasdiqlayman» _____
O'zbek tili va adabiyoti
kafedrası mudiri Sh.N.Ahmedova

« » _____ 2016-y.

BuxDU filologiya fakulteti bitiruvchisi **Fozilova Mohinurning “Polisemantik fe'llarning matndagi ifodasi”** mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi ustida olib borishi lozim bo'lgan ishlar yuzasidan

TOPSHIRIQLAR REJASI

Faoliyat nomi	Ishning qisqacha mazmuni	Bajarilish vaqti	Bajarilgan ishlar haqida ilmiy rahbar xulosasi (imzo)	Talaba (imzo)
Nazariy faoliyat	1. Mavzu bo'yicha zaruriy ilmiy, ilmiy-metodik materiallarni to'plash, o'rganish	sentabr		
	2. Ilmiy adabiyotlarini mavzu nuqtayi nazaridan o'rganish	sentabr		
	3. Mavzu bo'yicha ilmiy manbalarni taqqoslash. Adabiyotlar ustida ishlash. To'plangan materiallarni sistemalashtirish	oktabr		
BMI ustida ishlash	1. BMI rejasini tuzish. Tadqiqotning kirish qismini tayyorlash	noyabr		
	2. I bob paragraflari ustida ishlash	dekabr		
	3. II bob paragraflari ustida ishlash	yanvar		
	4. Ishni yakunlash, tahrir etish va oqqa ko'chirish	fevral		
	5. Xulosa (tahlillar natijasida umumlashmalar va xulosalarni yoritish)	mart aprel		
	6. Adabiyotlar ro'yxatini tartibga solish			
BMini rasmiy-lashtirish	Dastlabki himoya jarayonida qatnashish	may		
	BMini himoya qilish	iyun		

Bitiruvchi kurs talabasi
Ilmiy rahbar

Mohinur Fozilova
To'lqin Asadov

Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti
o`zbek tili va adabiyoti kafedrasining 1-yig`ilishi bayonnomasidan
KO`CHIRMA

29-avgust, 2016-y.

Qatnashdil: kafedraning barcha
a`zolari

K U N T A R T I B I

Bitiruv malakaviy ishlari mavzularining muhokamasi, tasdig`i hamda
ilmiy rahbarlarni tayinlash.

Kafedra qaror qiladi:

4-kurs talabasi Fozilova Mohinurning bitiruv malakaviy ishi mavzusi
“**Polisemantik fe’llarning matndagi ifodasi**” shaklida tasdiqlansin.

Bitiruvchi kurs talabasi Fozilova Mohinurning malakaviy bitiruv ishiga
f.f.nomzodi, dotsent To’lqin Asadov ilmiy rahbar etib tayinlansin.

Yig`ilish raisi

Sh.N.Ahmedova

Yig`ilish kotibasi

G.Y.Samandarova

**Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti
o`zbek tilshunosligi kafedrasining navbatdan tashqari yig`ilishi
bayonnomasidan
KO`CHIRMA**

Buxoro sh.

5-may, 2017-y.

**Qatnashdi: kafedraning barcha
a`zolari**

K U N T A R T I B I

**4-kurs talabasi Fozilova Mohinurning “Polisemantik fe’llarning
matndagi ifodasi” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi muhokamasi**

Kafedra qaror qiladi:

4-kurs talabasi Fozilova Mohinurning “Polisemantik fe’llarning matndagi ifodasi” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi «sinov himoyasidan o`tdi» deb hisoblansin va rasmiy himoyaga tavsiya etilsin.

Mazkur bitiruv malakaviy ishiga taqrizchi etib filologiya fanlari nomzodi, dotsent B.E.Qilichev tayinlansin.

Yig`ilish raisi

A.R.Ahmedov

Yig`ilish kotibasi

N.G`aybullayeva

Filologiya fakulteti 5120100-Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)
ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi Fozilova Mohinurning "Polisemantik fe'llarning
matndagi ifodasi" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi
ANNOTATSIYASI

Fe'l leksemalarining ma'no imkoniyatlari nihoyatda boy. Buning birlamchi sababi shundaki, fe'llarning aksariyati umumturkiy so'zlar hisoblanadi. Umumturkiy so'zlarda, odatda, ma'no imkoniyat keng taraqqiy topgan bo'lishi tabiiy. Chunki ular qadimiy tadrijiy rivojlanish bosqichi davomida turli semalar ifoda etishga ixtisoslashib borgan. Ikkinchidan, nutqimizda boshqa turkum so'zlariga nisbatan fe'llardan ko'proq foydalanamiz. Mana bu holat ham fe'l ma'no imkoniyatlarining kengayishiga zarurat tug'dirgan desak, yanglishmaymiz.

Yaqin yillarda, aniqroqi, o'tgan asrning 90-yillaridan boshlab yaratilgan va yaratilayotgan darslik, o'quv qo'llanmalarida fe'lning qo'shimcha lugaviy ma'no imkoniyatlari haqida nisbatan salmoqli fikrlar uchraydi. Bular ham fe'l ma'no imkoniyatlari haqida umumiy ma'lumot bera oladi, xolos.

Biz o'z tadqiqotimizda muayyan bir fe'lning bir matnda bir ma'no guruhi, boshqa matnda ikkinchi ma'no guruhiga ham tegishli bo'la olishi mumkinligini badiiy matndan olingan misollar bilan izohlashga harakat qildik.

MBIdan ko'zlangan asosiy maqsad fe'lning ma'noviy imkoniyatlarini, matndagi ifodasini sharhlash, ular orasidagi ma'noviy zanjirni kuzatish, ma'no tuzilishlarini belgilash, matndagi imkoniyatlarini yoritishdan iborat. Bu maqsadlarni amalga oshirish quyidagi vazifalarni hal qilish bilan bog'liq ravishda kechadi: 1) fe'l turkumining semantik-grammatik tabiatini belgilash; 2) leksikaning semantik tuzilishini o'rganish; 3) fe'l lug'aviy ma'no guruhlarining manbalardagi ifodasini yoritish; 4) fe'l lug'aviy ma'no guruhlariga oid so'zlarning qo'shimcha ma'no imkoniyatlarini, ma'no tuzilishini o'rganish.

Tadqiqot obyekti va predmetini hozirgi o'zbek tili, "O'zbek tilining izohli lug'ati" qomusida qayd etilgan so'zlar majmuasi, shuningdek, daliliy til materiali sifatida hozirgi o'zbek adiblarining asarlari, o'rni bilan davriy matbuot tili tashkil etadi.

Ishning metodologik asosini dialektik mantiq qonunlari tashkil etadi. Ishda umumiylik va xususiylik, qiyoslash kabi kompleks tahlil usullaridan foydalanildi.

MBIda quyidagicha ilmiy yangiliklar qo'lga kiritildi: 1) leksemaning semantik tuzilishi haqida aytilgan fikrlarga o'rni-o'rni bilan munosabat bildirildi; 2) fe'lning asosiy lug'aviy ma'no guruhleri bir o'rinda yig'ildi, sistemalashtirildi hamda munosabat bildirildi; 3) fe'lning asosiy LMG lariga mansub so'zlarning ma'no imkoniyatlari, ma'no tuzilishi nisbatan keng planda yoritildi.

Tadqiqotimiz natijalaridan morfologiya, semasiologiya, leksikografiya haqida maxsus kurslarni o'tishda, shuningdek, shu mavzu ostida o'quv-uslubiy qo'llanmalar, metodik yo'riqnomalar yaratish davomida foydalanish mumkin.

Bitiruv ishi kirish, ikki asosiy bob, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Ilmiy rahbar
Talaba

Asadov T.H.
Fozilova M.I.

**BuxDU filologiya fakulteti 5120100 - Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili)
ta`lim yo`nalishi bitiruvchisi Fozilova Mohinurning "Polisemantik fe'llarning
matndagi ifodasi" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga ilmiy rahbar
XULOSASI**

So`z turkumlari sirasida fe'l leksemalarining ma'no imkoniyatalri nihoyatda boy. Buning birlamchi sababi shundaki, fe'llarning aksariyati umumturkiy so'zlar hisoblanadi. Umumturkiy so'zlarda, odatda, ma'no imkoniyat keng taraqqiy topgan bo'lishi tabiiy. Chunki ular qadimiy tadrijiy rivojlanish bosqichi davomida turli semalar ifoda etishga ixtisoslashib borgan. Ikkinchidan, nutqimizda boshqa turkum so'zlariga nisbatan fe'llardan ko'proq foydalanamiz. Mana bu holat ham fe'l ma'no imkoniyatlarining kengayishiga zarurat tug'dirgan desak, yanglishmaymiz.

Yaqin yillarda, aniqroqi, o'tgan asrning 90-yillaridan boshlab yaratilgan va yaratilayotgan darslik, o'quv qo'llanmalarida fe'lning qo'shimcha lug'aviy ma'no imkoniyatlari haqida nisbatan salmoqli fikrlar uchraydi. Bular ham fe'l ma'no imkoniyatlari haqida umumiy ma'lumot bera oladi, xolos.

Fozilova Mohinur o'z tadqiqotida muayyan bir fe'lning bir matnda bir ma'no guruhi, boshqa matnda ikkinchi ma'no guruhiga ham tegishli bo'la olishi mumkinligini badiiy matndan olingan misollar bilan izohlashga harakat qilgan.

Ishning birinchi bobi uch banddan iborat bo'lib, unda fe'l turkumining nazariy masalalari haqida so'z boradi. O'rni-o'rni bilan fe'l so'zlarning ma'no imkoniyatlariga to'xtalaniladi.

Ishning ikkinchi bobi bevosita fe'l so'zlarning ma'no imkoniyatlariga qaratilgan. Bu bobda fe'l so'zlar LMG lariga tizilgan, har bir guruhga tegishli fe'l so'zlar, ularning ma'no imkoniyatlari sharhlangan. Sharhlash davomida falsafa kategoriyalari (UMIS va AHVO)ga amal qilinib ish tutilgan.

"So'z ma'nosi so'z tuzilishida alohida bir soha sifatida o'rganiladi. Jumladan, fe'l turkumiga oid so'zlar ham. So'z ma'nosi, bir tomondan so'z masalasiga, ikkinchidan, til va tafakkurning o'zaro munosabati masalasiga tegishlidir. Fe'llar anglatgan qator ma'nolariga ko'ra turli mazmuniy guruhlarga bo'linadi. Bunda harakatga xos yaratish, buzish, o'zgartirish, so'zlash, sezish, yo'naltirish, holatga xos ruhiy-psixik, tafakkur bilan bog'liq fe'llar farqlanadi", - deb to'g'ri ta'kidlaydi tadqiqotchi (I bob 2-band).

M.Fozilova yaqin yillarda yatilgan adabiyotlardan unumli foydalangan. Ish ravon, sodda, tushunarli tarzda yozilgan.

Bitiruvchi kurs talabasi M.Fozilovaning izlanishlari bitiruv malakaviy ishlari oldiga qo'yilgan talablarga javob beradi. Mazkur bitiruv malakaviy ishini ilmiy rahbar sifatida yakunlangan ish deb hisoblayman va uni rasmiy himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar

Asadov T.H.

o`zbek tilshunosligi kafedراسi dotsenti, f.f.n.

15-may, 2017-yil.

BuxDU filologiya fakulteti 5120100 - Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili) ta`lim yo`nalishi bitiruvchisi Fozilova Mohinurning "Polisemantik fe'llarning matndagi ifodasi" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga rasmiy hakam

TAQRIZI

O'zbek tilshunosligida so'z turkumlari, ularning semantik-grammatik tabiatini keng tarzda, fundamental o'rganish va sharhlashni o'tgan asrning 50-yillarida birinchilardan bo'lib tilshunos olim prof. A.G'ulomov boshlab berdi. Undan keyingi davrlarda yaratilgan ko'pincha manbalarda fe'lni yoritishda A.G'ulomov tadqiqotlari asos qilib olindi.

Bu borada akad. A.Hojiyevning kuzatishlarini ham alohida ta'kidlash lozim. Biroq bu manbalarda fe'lning ma'no turlari va ularning qo'shimcha semantik imkoniyatlari alohida mavzu ostida berilmagan. Faqat fe'llarning ayrim ma'no ifodasi borasidagi fikrlar yo'l-yo'lakay aytib o'tilganligiga guvoh bo'lamiz. XX asrning oxirgi choragida fe'l va uning uslubiy imkoniyatlari tilshunos olim M.Sodiqova tomonidan atroflicha talqin etilganligiga guvoh bo'lamiz.

Yaqin yillarda, aniqroqi, o'tgan asrning 90-yillaridan boshlab yaratilgan va yaratilayotgan darslik, o'quv qo'llanmalarda fe'lning qo'shimcha luqaviy ma'no imkoniyatlari haqida nisbatan salmoqli, keng fikrlar uchraydi. Bular ham fe'l ma'no imkoniyatlari haqida umumiy ma'lumot bera oladi, xolos.

Fe'lning keng ma'no ifodasi bo'yicha prof. R.Rasulov ishlarini aytish o'rinli. Tadqiqotchi M.Fozilova o'z ishida fe'l ma'no turlarini alohida tasniflaydi, shuningdek, fe'ning semantik ma'no tuzilishi haqida ham amaliy, ham nazariy ma'lumotlar beradi. Badiiy adabiyotlardan yetarlicha misollar yig'ilgan, yig'ilgan misollar izohlangan.

Ish kirish (Ishning umumiy tavsifi), ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, tadqiqotchi mavzuni yoritishda belgilagan vazifalarni to'la amalgam oshirgan.

Bularning bari MBIning saviyasi va foydaliligini belgilaydi. Ish yakuniy xulosaga ega. Tadqiqotchi o'z oldiga qo'ygan vazifalarga erishgan u shunday ishlar oldiga qo'yilgan talablarga javob bera oladi. Rasmiy hakam sifatida ishni ijobiy baholayman.

Rasmiy hakam

**Qilichev B.E.
o`zbek tilshunosligi kafedrası
dotsenti, filologiya fanlari nomzodi**

***Fakultet ilmiy kengashning 2017- yil may
bayonnomasi bilan tasdiqlangan***

BuxDU filologiya fakulteti 5120100 - Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili) ta'lim yo`nalishi bitiruvchisi Fozilova Mohinurning "Polisemantik fe'llarning matndagi ifodasi" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga DAK

XULOSASI

№	Belgilangan me'yorlar			
1	BMIning hajm va talab bo'yicha rasmiylashtirilganligi (me'yor: 45 betdan kam bo'lmasligi kerak)	talabga javob beradi-10 ball	talabga qisman javob beradi-7 ball	talabdan chetga chiqish holatlari mavjud-4 ball
2	Mavzuning davlat va universitet grant dasturlari asosida yoki dolzarb muammolar bo'yicha tanlanganligi	davlat dasturiga kirgan-8 ball	grant loyihasi bo'yicha - 7 ball	BuxDU dasturi bo'yicha-6 ball yoki dolzarb muammolar bo'yicha-5 ball
3	Mavzu dolzarbligining asoslanganligi	yetarli darajada asoslangan-5b.	yetarli asoslan- magan-3b.	noaniq -2 ball
4	Maqsad va vazifalarning aniq ifodalanganligi	aniq - 7 ball	to'liq aniq emas - 5 ball	aniq emas - 3 ball
5	BMIda ilmiy tekshirish metodla-ridan foydalanganlik darajasi	to'la- 7 ball	qisman - 5 ball	yetarli emas-3 ball
6	Olingan natijalarning yangiligi va ishonchlilik darajasi	natija yangi - 8 ball	ilgari olingan - 6 ball	to'la ishonchli emas-3 ball
7	BMIning xulosa qismida tavsiyalar berilganligi:, ijtimoiy sohada qo'llashga (ta'lim, atrof-muhitni himoya qilish, ma'naviy-ma'rifiy...)	bevosita ishlab chiqishga tavsiyasi bor -6 ball	tavsiya qilingan-5 ball	tavsiya yo`q- 3 ball
8	Bitiruvchining mavzu bo'yicha olingan natijalarini tanqidiy baholanganligi darajasi	aniq-8 ball	to'la aniq emas - 6 ball	tanqidiy baholanmagan-4 ball

9	Ishning ilmiy xarakteri	ilmiy tadqiqotlar asosida - 8 ball	aralash shaklidan - 5 ball	referativ xarakterdan - 3 ball
10	Adabiyotlardan foydalanganlik darajasi	ilmiy-amaliy jurnallar, monografiya, yetakchi olimlar asarlaridan to'la foydalanilgan - 8 ball	ilmiy adabiyotlar kam foydalanilgan - 6 ball	faqat darslik, ma'ruza matnlari, o'quv qo'llanma va ma'lumotnomalardangina foydalanilgan - 4 ball
11	Bitiruvchi taqdimotiga baho	a'lo - 10 ball	yaxshi - 7 ball	qoniqarli - 6 ball
12	Berilgan savollarga javobi	to'liq - 8 ball	o'rta - 6 ball	qoniqarli- 4 ball
13	BMIning tashqi taqrizchi tomonidan baholanishi	a'lo - 7 ball	yaxshi - 6 ball	qoniqarli - 5 ball
14	BMIGA qo'yilgan yakuniy ball:		Bahosi:	

Eslatma: Har bir ball bo'yicha aniqlangan ballning tagiga chizib belgilanadi.

DAK raisi: prof. Shermatov A.

A'zolari: 1. dots.Haydarov A.A. (rais muovini)

2. dots.Ahmedov A.R. (a'zo)

3. dots.Qilichev B.E. (a'zo)

4. dots.Yo'ldosheva D..N. (a'zo)

9-iyun, 2017-y.

Reja

Ishning umumiy tavsifi

I BOB

O'zbek tilida fe'l so'z turkumi

- I.1. Fe'l turkumining o'rganilishi
- I.2. Fe'lning semantik-grammatik tabiati
- I.3. Sodda yasama fe'llarning ma'no imkoniyatlari

II BOB

Fe'lning asosiy lug'aviy ma'no guruhlari

- II.1. Leksemaning semantik tuzilishi xususida
- II.2. Fe'lning y lug'aviy ma'no guruhlarning manbalardagi ifodasi
- II.3. Fe'l lug'aviy ma'no guruhlari va ularning qo'shimcha ma'nolari
 - II.3.1. Harakat fe'llarining ma'no xususiyati
 - II.3.2. Nutq fe'llarining ma'no xususiyati
 - II.3.3. Natijali faoliyat fe'llarining ma'no xususiyati
 - II.3.4. Tafakkur fe'llarining ma'no xususiyati
 - II.3.5. Holat fe'llarining ma'no xususiyatlari

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Ishning umumiy tavsifi

Mavzuning dolzarbligi. Har bir xalqning madaniyati va ma'naviyatining tub asosida milliy til turishi isbob talab etmaydigan haqiqatdir. Yurtimizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov so'zlari bilan aytganla, "Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jazibasi bilan singari. Ona tili – bu millatning ruhidir"[2,36]. Shu nuqtayi nazardan aytadigan bo'lsak, tilimizning nozik ma'no ifodalarini bilish va nutq jarayonida til imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanish uchun til hodisalari tabiati, umumiy, xususiy jihatlar haqida har bir kishida, ya'ni shu tildan foydalanuvchilarda tilimiz keng imkoniyatlari to'g'risida ozmi-ko'pmi ma'lumot bo'lishi lozim. Til imkoniyatlari bevosita va bilvosita og'zaki va yozma so'z shaklida ro'yobga chiqadi. Bunda tadqiqotimiz manbayi bo'lgan fe'l turkumiga oid so'zlar guruhi ham faol qo'llanadi.

Fe'l leksemalari ma'no imkoniyatalri nihoyatda boy. Buning birlamchi sababi shundaki, fe'llarning aksariyati umumturkiy so'zlar hisoblanadi. Umumturkiy so'zlarda, odatda, ma'no imkoniyat keng taraqqiy topgan bo'lishi tabiiy. Chunki ular qadimiy tadrijiy rivojlanish bosqichi davomida turli semalar ifoda etishga ixtisoslashib borgan. Ikkinchidan, nutqimizda boshqa turkum so'zlariga nisbatan fe'llardan ko'proq foydalanamiz. Mana bu holat ham fe'l ma'no imkoniyatlarining kengayishiga zarurat tug'dirgan desak, yanglishmaymiz.

Fe'l turkumiga oid so'zlarning LMG (luqaviy ma'no guruhlari) o'ta keng. Ular haqida manbalarda fikrlar aytilgan. Biroq fe'lning ma'no imkoniyatlari haqidagi fikrlarni yetarli deb bo'lmaydi. Qolaversa, aytigan ayrim fikrlarni to'ldirish, sistemalashtirish, yig'ish, o'rni bilan ularga munosabat bildirish bugungi kun fani oldida turgan vazifalardan biridir. Bu kabi vazifalar biz tanlagan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning o'rganilish darajasi. O'zbek tilshunosligida so'z turkumlari, ularning semantik-grammatik tabiatini keng tarzda o'rganishni o'tgan asrning 50-yillarida birinchilardan bo'lib tilshunos olim prof. A.G'ulomov boshlab berdi [9]. Undan keyingi davrlarda yaratilgan ko'pincha manbalarda fe'lni yoritishda A.G'ulomov tadqiqotlari asos qilib olindi[16;23;24;30;33;34]. Biroq bu

manbalarda fe'ning ma'no turlari va ularning qo'shimcha semantik imkoniyatlari alohida mavzu ostida berilmagan. Faqat fe'llarning ayrim ma'no ifodasi borasidagi fikrlar yo'l-yo'lakay aytib o'tilganligiga guvoq bo'lamiz [13;19;20;21;22;28;29].

Yaqin yillarda, aniqroqi, o'tgan asrning 90-yillaridan boshlab yaratilgan va yaratilayotgan darslik, o'quv qo'llanmalarida fe'ning qo'shimcha luqaviy ma'no imkoniyatlari haqida nisbatan salmoqli fikrlar uchraydi [6;26;27;38;40;41]. Bular ham fe'l ma'no imkoniyatlari haqida umumiy ma'lumot bera oladi, xolos.

Fe'ning keng ma'no ifodasi bo'yicha prof. R.Rasulov ishlarini aytish o'rinli [26]. Tadqiqotchi o'z ishlarida fe'l ma'no turlarini alohida tasniflaydi, shuningdek, fe'ning semantik ma'no tuzilishi haqida ham amaliy, ham nazariy ma'lumotlar beradi. Bunda olim holat fe'llarini tadqiqot manbayi qilib oladi. Biroq olim fe'l ma'no guruhlar orasidagi ma'noviy zanjir, shuningdek, bir ma'no guruhiga oid fe'ning matn takibida (nutqdagi voqelanishida) boshqa ma'no guruhlariga o'tish masalalariga deyarli to'xtalmagan.

Biz o'z tadqiqotimizda muayyan bir fe'ning bir matnda bir mano guruhi, boshqa matnda ikkinchi ma'no guruhiga ham tegishli bo'la olishi mumkinligini badiiy matndan olingan misollar bilan izohlashga harakat qildik.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. MBIdan ko'zlangan asosiy maqsad fe'ning ma'noviy imkoniyatlarini, matndagi ifodasini sharhlash, ular orasidagi ma'noviy zanjirni kuzatish, ma'no tuzilishlarini belgilash, matndagi imkoniyatlarini yoritishdan iborat. Bu maqsadlarni amalga oshirish quyidagi vazifalarni hal qilish bilan bog'liq ravishda kechadi:

- fe'r turkumining semantik-grammatik tabitini belgilash;
- leksikaning semantik tuzilishini o'rganish;
- fe'l lug'aviy ma'no guruhlarining manbalardagi ifodasini yoritish;
- fe'l lug'aviy ma'no guruhlariga oid so'zlarning qo'shimcha ma'no imkoniyatlarini, ma'no tuzilishini o'rganish.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Hozirgi o'zbek tili, "O'zbek tilining izohli lug'ati"[36] qomusida qayd etilgan so'zlar majmuasiga, shuningdek, daliliy til

materiali sifatida hozirgi o'zbek adiblarining asarlariga, o'rni bilan davriy matbuot tiliga ham murojaat qilindi.

Tadqiqot metodlari. Ishning metodologik asosini dialektik mantiq qonunlari tashkil etadi. Ishda umumiylik va xususiylik, qiyoslash kabi tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. MBIda quyidagicha ilmiy yangiliklar qo'lga kiritildi:

-leksemaning semantik tuzilishi haqida aytilgan fikrlarga o'rni-o'rini bilan munosabat bildirildi;

-fe'lning asosiy lug'aviy ma'no guruhlari bir o'rinda yig'ildi, sistemalashtirildi hamda munosabat bildirildi;

-fe'lning asosiy LMGLariga mansub so'zlarning ma'no imkoniyatlari, ma'no tuzilishi nisbatan keng planda yoritildi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotimiz natijalaridan morfologiya, semasiologiya, leksikografiya haqida maxsus kurslarni o'tishda, shuningdek, shu mavzu ostida o'quv-uslubiy qo'llanmalar, metodik yo'riqnomalar yaratish davomida foydalanish mumkin.

MBIning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish (ishning umumiy tasnifi), ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 47 sahifani tashkil etadi.

I BOB

O'zbek tilida fe'l so'z turkumi

I.1. Fe'l turkumining o'rganilishi

O'zbek tilida (umuman, barcha turkiy tillarda ham) fe'l so'z turkumi so'z turkumlari tizimida alohida o'ringa ega. Fikr ifodalashda fe'lning mavqei baland ekanligini izohlashga hojat bo'lmasa kerak. Mazkur so'zlar qadim tarixga ega. So'zlarni turkumlashda dastlabki so'z turkumi sifatida, odatda, fe'l ko'rsatilishini ko'p kuzatganmiz [3;4;5;8;11]. Dunyo tilshunosligida ham bu turkumning leksik-grammatik tabiatiga kehg o'rin ajratilganligiga guvoh bo'lamiz [27;31].

Fe'l so'zlar qadimgi turkiy tilda ham faol qollangan [5,34-40]. Qadimgi turkiy tilda -a, -la, -lan, -sira, -(i)q,-(i)k, -sa kabi qo'shimcha shakllar fe'l yasasga xizmat qilganligi aytiladi[5,34-35]. Shuningdek, fe'lning daraja shakllari, bo'lishsisiz, formasi, mayl shakllari, sifat-dosh, ravish-dosh, harakat shakli shakllari ham keng iste'molda bo'lganligiga guvoh bo'lish mumkin.

Fe'l uzoq tarixiy rivojlanish bosqichini bosib o'tdi. Albatta, hozirgi o'zbek adabiy tili grammatikasida fe'l turkumi, uning semantik-grammatik tabiatini belgilashda mazkur turkumning o'zbek tili tarixiy grammatikasidagi orniga to'xtalish tanlangan mavzuni chuqurroq yoritishga qo'l keladi. Chunki fe'l so'zlarning ma'no taraqqiyoti bevosita fe'l tarixiy rivojlanish jarayoni bilan ham bog'liq. Muayyan bir fe'lning ma'no taraqqiyoti shu so'zning "bosib o'tgan yo'li" bilan uzviy bog'liq. Fe'l turkumiga oid so'zlar o'zining tarixan qadimiyligi bilan o'ziga xoslik kasb etadi. Qolaversa, fe'l turkumiga xos so'zlarning aksariyati o'z qatlam so'zlari (asl turkiy so'zlar) hisoblanadi.

Fe'l guruhiga xos so'zlarni o'rganish va talqin etish bilan uning o'ta serqirra, ma'no imkoniyati nihoyatda boyligiga guvoh bo'lish mumkin.

Ma'lumki, tilshunoslik ta'limot siftada dastlab qadimgi Hindistonda paydo bo'ldi. Qadimgi hindlar miloddan bir necha asr oldin til hodisalari borasida o'z qarashlarini bayon etganlar. Fonetik hodisalarni o'rganish bilan birga, morfologiya, so'z turkumlari (so'z tasnifi), so'z yasalishi, so'z o'zgarish bo'yicha o'z

ta'limotlarni bayon etganlar. Hind mutaxassislari fe'lga xos zamon, mayl, nisbat, bo'lishli, bo'lishsizlik borasida fikrlar bildirishgan[27;31].

Faylasuflar va shoirlar vatani bo'lgan qadimgi Yuunonistonda til masalalari dastlab faylasuflar tomonidan o'rganilgan. Ular fonetika, leksika bilan birga, grammatikaga ham alohida e'tibor qaratdilar. Tilshunoslikning grammatik davrida yunon olimlaridan biri Dionisiy fe'l haqida fikr yuritib, fe'lning kelishiksiz so'z turkumi ekanligini aytadi. Fe'lga xos zamon, shaxs-son, mayl, nisbat, tuslanish borasida fikr yuritadi. Fe'lning beshta: aniqlik, buyruq, istak, tobelik va noaniqlik mayllarini; fe'lning uchta: harakat, o'zlik va o'rta nisbatlarini; fe'lning uchta: birlik, juftlik va ko'plik sonlarni; fe'lning uchta: birinchi – nutq so'zlagan, ikkinchi – nutq yo'naltirilgan va uchinchi – so'z yuritilgan (o'zga) shaxslarni qayd etadi. Grammatik zamon esa hozirgi, o'tgan va kelasi zamon kabi turlarga bo'linadi. Sifatdoshlar esa fe'l va otlarga xos bo'lgan belgilarni birlashtiradigan kategoriya sifatida talqin qilinadi [26].

Qadimgi yunon olimlari, jumladan Aristolel va unga zamondosh faylasuflar uchta turkumni ajratib ko'rsatadilar. Ularning fikricha, nutq ismlar, fe'llar va bog'lovchilarga bo'linadi [26;31].

Arab tilshunoslari so'z turkumlarini paradigmasini uch unsurdan – ot, fe'l va yuklama turkumidan iborat deb hisobladilar. Arab tilshunosligi o'n asrdan so'ng o'z taraqqiyotini sekinlashtirib, inqirozga yuz tutayotgan davrda, XI asrning ikkinchi yarmida to'ng'ich turkiyshunos va tilshunos olim Maqmur Koshg'ariy maydonga chiqdi.

So'z turkumlariga nisbatan qarashlar borasida Mahmud Koshg'ariyning o'z tadqiqot obyekti – turkiy tillar tabiatidan kelib chiqib mulohaza yuritishga intilishi kuzatiladi. Olim so'z turkumlarini dastlab uch turkumga ajratadi: ism, fe'l, harf [11]. Mahmud Koshg'ariy so'zlarni turkumlarga ajratishda arab tili grammatikasiga tayanadi. Olimning asari “Devon-u lug'otit turk” asarida fe'llarga ismlar qatori katta e'tibor berilgan, chunki o'sha davr tilshunoslik an'anasiga ko'ra lug'atchilikda nutqning eng muhim komponentlari bo'lgan ot (ega) va fe'l (kesim)ga alohida e'tibor bilan qarash lozim edi.

Mahmud Koshg'ariy "Devon"da fe'l to'g'risida mulohaza yuritayotgan o'rinlarda fe'llarning yasalishi, ulardagi zamon, nisbat, o'timli-o'timsizlik kategoriyalari haqida ma'lumot beradi.

Fe'llarning yasalishi to'g'risida so'z ketganja Mahmud Koshg'ariy turkiy tillarda tub (asl) fe'llardan farqli o'laroq yasama fe'llar asosan otlardan yasalishiga e'tibor qaratadi[11].

"Devon'da fe'l zamonlaridan o'tgan zamonga alohida e'tibor beriladi. Asarda keltirilgan asosiy fe'l formalari o'tgan zamondadir. Fe'llardagi o'timlilik-o'timsizlik masalasiga ham e'tibor berilgan.

Xullas, olim fe'lga alohida e'tibor bilan qaraganligiga guvoh bo'lamiz. Mazkur holat fe'l bo'yicha tasavvurimizni kengaytirish bilan birga, bu turkumning o'rganilish tarixi uzoqligidan dalolat beradi.

Buyuk mutafakkir, o'zbek adabiy tilining asoschisi va targ'ibotchisi Alisher Navoiy tilshunoslik tarixida ham o'chmas iz qoldirgan ulug' olim hisoblanadi. Uning lisoniy qarashlari "Muhokamat-ul lug'atayn" asarida jamlangan. Mazkur asarda olim ko'pgina til hodisalariga, jumladan, fe'l turkumiga to'xtaldi[27].

Alisher Navoiy morfologiyaga oid fikrlarni bayon qilar ekan, asosiy yetakchi so'z turkumi sifatida fe'llarga murojaat qiladi. Fe'l birliklarining ma'no jihatidan, shakl va qo'llash jihatidan eski o'zbek adabiy tilining o'zigagina xos, ya'ni forsiyda uchramaydigan xususiyatlarini zukko tilshunos sifatida tahlilga tortadi [27]. Fe'lning nibati, fe'lning o'zlik, orttirma va birgalik nisbatlarini, ravishdosh shaklini, ko'makchi fe'l yordamida tuzilgan murakkab fe'llarni qayd etadi.

Alisher Navoiy fe'lning orttirma nisbat shakli haqida fikr yuritar ekan, ayni nisbat tushunchasi -t qo'shimchasi orqali hosil bo'lishini aytadi, qator misollar keltiradi (Jumladan: *yugurt*, *yashurt*, *chiqart*, va h.k.).

XX asr boshlarida Abdurauf Fitrat so'z turkumlarini, jumladan, fe'l turkumini tadqiq etadi. Fe'lga harakat va holat ifodalovchi turkum sifatida yondashadi. Fe'lga xos zamon, mayl, shaxs-sonni fe'lning grammatik belgilari deb baholaydi.

O'zbek tili so'z turkumlarini maxsus o'rganish (fundamental tadqiq etish) 50-yillardan boshlandi. Jumladan, 50-yillar boshlarida prof. Ayyub G'ulomov fe'l,

S.Fuzailov ravish, X.Komilova son va olmosh, Sh.Shoabdurahmonov yordamchi soʻzlar borasidagi kuzatishlarni eʼlon qildi. Mazkur kuzatishlar 1957-yilda F.Kamol tahriri ostida bosmadan chiqqan “Hozirgi zamon oʻzbek adabiy tili” kitobida umumlashtirildi [9]. Ushbu asarda soʻz turkumlari tasnifiga semantik, morfologik va sintaktik tamoyil asos qilib olindi.

1975-yilda chop etilgan “Oʻzbek tili grammatikasi” kitobi tilshunoslik fani uchun oʻziga xos yutuq boʻldi. U oʻzbek tilshunosligi fanining yetakchi namoyondalari (A.Gʻulomov, Sh.Rahmatullayev, M.Sodiqova, M.Asqarova, A.Hojiyev, S.Fuzailov, Sh.Abdurahmonov, R.Qoʻngʻirov) tadqiqotlariga tayanib tuzilgan. Manbaning feʼl boʻlimi Azim Hojiyev tomonidan yoritilgan[33]. Olim A.Gʻulomov, A.Kononov tadqiqotlariga tayanib ish koʻradi.

1980-yilda U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Rahmatullayevlar tomonidan chop etilgan “Hozirgi zamon adabiy tili” kitobida ham feʼlga alohida oʻrin ajratilgan [30]. “Hozirgi oʻzbek adabiy tili” kitobi oliy oʻquv yurtlari uchun darslik sifatida chop etilgan. Manbada feʼlni yoritishda fan yutqlari inobatga olingan holda ish koʻrilgan.

Yaqin oʻn yillikda yaratilgan morfologiyaga oid kuzatishlarda feʼlning maʼnoviy guruhlariga alohida eʼtibor qaratilganligi kuzatiladi. Bu esa feʼl boʻyicha, uning maʼno imkoniyatlari borasida yangi-yangi tadqiqotlarga undaydi. Qolaversa, leksik qatlam tez oʻsadigan, oʻzgarishlarga moyil boʻlib, tadqiqotchilaridan oʻziga xos kuzatishlarni kutib turadi.

Xullas, oʻzbek tilida feʼllarning maʼno tuzilishi, semantik tarkibi oʻziga xos kuzatish va tadqiqotni talab etadi.

I.2 Fe'lning semantik-grammatik tabiati

Fel so'zlarning qo'shimcha ma'nolari, uning polisemiyasi shu so'z turkumining semantik-grammatik tabiatiga ham bog'liq. So'zda semantik, morfologik va sintaktik belgi bir butunlikni tashkil etmas ekan, bunda ular tasnif asosi bo'lib xizmat qila olmaydi [15;18;39;43;44].

Tasniflash, avvalo, o'zi o'xshash predmetlar doirasini qat'iy belgilab olish zaruriyati masalasini qo'yadiki, bu uining ma'lum tadrijiy aniqlik, mantiqiy izchilikka intilish tabiatidan kelib chiqadi. Shu sababli tadqiqotchi oldida, dastlab til va nutq, xususan, leksema va so'z munosabatlarini to'g'ri belgilash, leksemalarning turli belgilari asosida tasniflash uchun saralab olish vazifasi turadi [10].

Fe'l ma'no tarkibini tadqiq etishda, avvalo, mazkur turkumga xos semantik-grammatik tabiatni yoritish ko'zlangan maqsadni beradi. Fe'l ma'no imkoniyatlari mazkur so'z turkumining uslubiy imkoniyatlarini ham belgilaydi [25;48;46]. Mazkur mezonga tayanib ish ko'radigan bo'lsak, fe'l bo'yicha quyidagilarni kutamiz.

Fe'l mustaqil ma'noli so'z. U harakat-holat ifofasiga ko'ra bir-biridan farqlanadi. Holat ifodalash boshqa turkumlarga ham xosdir. Biroq fe'lda u bir holatdan ikkinchi holatga o'tish tarzida bo'ladi. Masalan, *Yomg'ir yog'di* gapida bir holatdan ikkinchi holatga o'tish yuz bermoqda.

Fe'llar anglatgan qator ma'nolariga ko'ra turli mazmuniy guruhlariga bo'linadi. Bunda harakatga xos yaratish, buzish, o'zgartirish, so'zlash, sezish, yo'naltirish, holatga xos ruhiy-psixik, tafakkur bilan bog'liq fe'llar farqlanadi.

So'z ma'nosi so'z tuzilishida alohida bir soha sifatida o'rganiladi. Jumladan, fe'l turkumiga oid so'zlar ham. So'z ma'nosi, bir tomondan so'z masalasiga, ikkinchidan, til va tafakkurning o'zaro munosabati masalasiga tegishlidir.

So'z ma'nosi narsa-hodisa yoki ular orasidagi munosabatning kishi ongida aks etishidir. So'z ma'nosi so'zning tovush tomoni bilan hamisha birga yashaydi. So'z bir va ko'p ma'noni bildirishi yoki to'g'ri va ko'chma ma'nolarda ishlatilishi mumkin. So'zning har qanday ma'nosi kontekstda (matnda) aniqlanadi. So'z,

ya'ni fe'l so'zlarning ma'no imkoniyati rivoji ba'zida shu so'zning boshqa turkum qatoriga o'tib qolishi bilan ham tugallanadi[48]. Bu fanda konversiya usulida so'z yasash deb nomlanadi. Odamlar bir manzildan ikkinchisiga ko'chib o'tganlaridek, so'zlar ham bir turkumdan ikkinchisiga ko'chib o'tishi mumkin. So'zlarning bir turkumdan ikkinchisiga ko'chib o'tishi ma'lum qonuniyatlarga, o'zining tipik yo'nalishlariga ega. Hozirgi kunda fe'l so'zlarning otga ko'chganligini quyidagi hollarda kuzatamiz:

1. O'zak holidagi fe'llar: kurash, yel, kengash, shish, yuq, ich, ko'ch, qir.
2. Birgalik nisbatidagi fe'llar: o'ynash.
3. O'zak holidagi juft va takroriy fe'llar: ur-yiqit, ur-sur, baqir-chaqir, yasan-tusan, supur-sidir, yugur-yugur, chopa-chop.
4. Harakat nomining -v/ -uv. -sh/-ish, -r/ar qo'shimchalarini olgan sodda, juft fe'llar va ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalari : a) *saylov, ishlov, uquv, chanqov, qatnov, qistov, tintuv, maqtov, tergov, to'lov, qalov, qarov, to'ntarish, o'zgarish, qiziqish, o'qish, o'tirish, qarash, muyulish//burilish, burilish*("o'zgarish" ma'nosida); *yozuv-chizuv, yirish-turish, borish-kelish, bosar-tusar; ko'rolmaslik, kiraverish.*
5. Aniq(yaqin) o'tgan zamon shaklidagi sodda, juft va takroriy fe'llar: *chaqirdi, ko'rdi; keldi-ketdi, qo'ydi-chiqdi, oldi-berdi, oldi-sotdi, mindi-mindi* (bolalar o'yinining nomi) .

Sifatga ko'chgan fe'llarga esa aniq (yaqin) o'tgan zamon shaklidagi juft fe'llar va fe'lli birikmalari misol bo'ladi: *oldi-qochdi* (gap), *kuydi-pishdi* (ayol), *iliguzildi* (vaqt), *ichakuzdi* (hangomalar), *supraqoqdi* (farzand, ya'ni so'nggi farzand).

Fe'lning morfologik xususiyati ham yetakchi hisoblanadi. Fe'llar yuqoridagi tasnifga suyanadigan bo'lsak, o'zgaruvchan leksemalardir. Fe'lda munosabat shakllaridan zamon, mayl, shaxs-son mavjud. Fe'l mazkur shakllari bilan tuslanadi. Bular fe'lini tasniflovchi grammatik shakl hisoblanadi. Qolaversa, fe'lning grammatik kategoriyalari sanaladi.

Fe'lning yasalishi ham uning morfologik xususiyati sanaladi. Fe'l maxsus qo'shimchalar orqali yasaladi.

Fe'llarda kuzatilgan soddalashish, ixtisoslashish hodisalarini ham ushbu turkumga xos morfologik mezonga kiritish mumkin [18].

Affiksatsiya. Bu usulda fe'llar asosga qo'shimcha qo'shish orqali hosil bo'ladi. Mazkur usulda yangi so'z yasash morfologik usulda so'z yasash usuli deb ham yuritiladi. Affiksatsiya usuli bilan so'z yasalishi mavjud 12 ta so'z turkumining 5 tasiga xosdir, ya'ni ot, sifat, fe'l, ravish, qisman, olmosh so'z turkumida affiksatsiya usulida so'z yasash uchraydi.

Fe'lda affiksatsiya usulida so'z yasash kuchli. Bu usul bilan, odatda, fe'l bo'lmagan so'zlardan fe'l yasaladi. Yasash asosiga qo'shilib, fe'l hosil qilishning me'yori turlicha. Fe'l yasashda -la, -lan, -lashtir kabi affikslar unumdor sanaladi. Bizningcha, ayni zamonda -lashtir affiksining so'z yasashdagi unumdorligi -la affiksidan ham yuqori. Chunki yaqin yillarda leksik qatlamimizga kirib kelib o'rnatilgan bir qator so'zlardan aynan shu qo'shimcha bilan fe'l yasalishi nisbatan ko'p kuzatiladi. Masalan, *kinolashtirmoq*, *kompyuterlashtirmoq*, *texnikalashtirmoq*, *texnologiyalashtirmoq*, *videolashtirmoq* kabilar shular jumlasidandir. Fe'l bilan bog'liq so'z yasash qoliplarini kuzatamiz:

1. [ot/sifat/ravish/olmosh/taqlid/undov+la] = asosdan anglashilgan asbob-qurol bilan bajariladigan ishni qilish ma'noli: o'g'itla, betonla, jilovla, kishanla ; randala, egovla, arrala; urug'la, bolala, dodla, gumburla, sizla va h.k. Bu affiksning ma'no imkoniyati keng [28]. Hozirgi kunda ham ushbu qo'shimcha faol deyish mumkin.

Siltala, opichla, quvla kabi so'zlarda -la shakli so'z yasash vazifasini emas, balki lug'aviy shakl yasash vazifasini bajaryapti.

2. [ot/sifat/son +lan/lash + subyektning asosdan anglashilgan belgiga bo'lish harakati] qolipi tarkibidagi -lan/-lash affiksi o'zining murakkab tabiati bilan xarakterlanadi. Hozirda ular ikki affiksning birikuvida ekanligi bilan xarakterlanadi. Jonlanmoq, salomlashmoq, birlashmoq, zorlanmoq, qanoatlanmoq, zavqlanmoq, hayvonlashmoq, quyuqlashmoq va b.lar bunga misol bo'ladi. Mazkur affikslarning murakkab holga kelishi til taraqqiyotining keyingi davrlariga to'g'ri keladi.

3. [taqlid so'z+illa/ira = asos bildirgan tovush yoki holatni harakat tarzida ifodalash] qolipi taqlid so'zlardan fe'l yasaydi: shovulla, taqilla, chirsilla, dag'illa,

yaltira, shapilla v h.k. Biroq bu qolipni hosildor deb bo'lmaydi. Chunki taqlidlar nutqimizda sanoqli, qolaversa, yangi-yangi taqlidlarning hosil bo'lishi kuzatilmaydi. Demakki, mazkur qo'shimchani ham so'z yasash imkoniyati chegaralangan.

4. [ot/sifat/taqlid+a] Yashamoq, o'ynamoq, qonamoq, bo'shamoq. Bu qo'shimchani ham, ya'ni so'z yasovchi shakilning yangi-yangi so'z yasashi cheklangan.

Nutqimizda mavjud ayrim yasama fe'llarda -i, -(a)r, -(a)y, -t kabi so'z yasovchi affikslar ham mavjudki, bular kam miqdorda so'z yasashga xizmat qiladi. Mazkur shakllar bilan so'z yasalishi boyi, tinchi, oqar, ko'kar, sarg'y, ko'pay, to'lat, berkit kabilarda kuzatiladi. Bu qo'shimchalarning mahsulsiz shakllarga aylanishiga ham o'ziga yarasha sabablar bor[10,165]. Bu haqda to'xtashni maqsad qilib belgilagan emasmiz.

Xullas, hozirgi o'zbek tilida -la va uning ishtirokida yuzaga kelgan -las, -lash; -lantir, -lashtir affikslari mahsulli, sermahsul affikslar bo'lib, fe'l yasashning asosiy tiplarini ular yordamida yasalgan (yasalayotgan) fe'llar tashkil etadi.

Kompozitsiya. Bu usul leksik-sintaktik usulda so'z yasash ko'rinishi sifatida ham keng talqin etiladi. Kompozitsiya usuli bilan so'z yasalishiga aloqador bo'lgan juft, takroriy va qo'shma so'zlar hosil bo'ladi. Kompozitsiya usulida fe'l yasashda ikki shakl kuzatiladi:

a) ism+fe'l

b) fe'l+fe'l

Ism+fe'l tipidagi fe'llarni hosil qilishda yordamchi fe'l vazifasida *qilmoq, etmoq, bo'lmoq, olmoq, topmoq, urmoq, kelmoq* kabi so'zlar keladi. Bu so'zlar boshqa turkumga oid so'zlar bilan birikib, qo'shma fe'llarni yasaydi: qabul qilmoq, suhbat qilmoq, abgor etmoq, aks etmoq, rozi bo'lmoq kabi.

O'zbek tilida fe'l+fe'l tipidagi fe'llar sanoqli: sotib olmoq, borib kelmoq, kirib chiqmoq, chiqib o'tirmoq, olib qochmoq, olib kelmoq, olib bormoq va b.

Tilshunos olim A.Hojiyev ta'kidicha, hozirgi kunda qil fe'li bilangina yangi qo'shma fe'llar hosil bo'lishi kuzatiladi xolos [10]. U hatto ruscha va rus tili orqali o'zlashgan so'zlarga qo'shilib ham fe'llar yasaydi: *asfalt qilmoq, dizenfeksiya qilmoq,*

klassifikatsiya qilmoq va b. Qil yordamida ham, asosan, -la affiksi yasagan tipdagi fe'llar yasaladi. Shuning uchun ham ko'p hollarda ularni birini ikkinchisi bilan almashtirish mumkin [10,166].

Juft fe'llar. Juft fe'llar grammatik shakliga ko'ra ikki ko'rinishda bo'ladi:

1. Biri ravishdosh shaklida, ikkinchisi boshqa shaklda: aylanib-o'rgirlamoq, yelib-yugurmoq, yayrab-yashnamoq, qo'llab-quvvatlamoq, o'ynab-kulmoq.

2. Har ikki qismi bir xil shaklda: Aylanib-o'rgilib, o'ylamay-netmay, aralashib-quralashib, uyalmay-netmay, tejab-tergab, yuvib-tarab, yayrab-yashnab va h.k.

Juft fe'llar tarkibiy qismlarining qo'llanishiga ko'ra quyidagicha bo'ladi:

1. Qismlari yakka holda ishlatiladigan juft fe'llar:

a) qismlari o'zaro sinonim: hormay-tolmay, qo'llab-quvvatlab;

b) qismlari o'zaro antonim: kelib-ketib, o'lib-tirilib, o'tirib-turib ;

b) qismlarining ma'nosi yaqin: aylanib-o'rgilmoq, yeb-ichmoq, yuvib-tarab, oshirib-toshirib.

2. Ikkinchi qismi yakka holda ishlatilmaydigan juft fe'llar: aldab-suldab, yamab-yasqab, qolgan-qutgan, yig'lab-siqtab va h.k.

Kirdi-chiqdi, oldi-berdi, oldi-sotdi kabi juft fe'llar ot so'z turkumi guruhidan o'rin olganligiga guvoh bo'lamiz.

Takror fe'llar bir fe'lning takroridan hosil bo'ladi. Ularning ayrimlari ot so'z turkumiga o'tganligiga ham guvoh bo'lamiz. Dedi-dedi, mindi-mindi (o'yin turi), mish-mish (emish-emish) kabilar bunga misol bo'ladi.

Fe'lning sintaktik tabiati borasida manbalarda yetarlicha fikr bayon etilgan. Bu o'rinda quyidagilarni aytish bilan cheklanamiz. Fe'llar chapda boshqa so'zlar bilan boqlanib, kesim, ega, to'ldiruvchi, hol, aniqllovchi vazifasida kelishi mumkin. Buning uchun fe'l maxsus shakllarga ega bo'ladi. Turli gap bo'laklari vazifasida kelish uchun xoslangan fe'l shakllari fe'lning vazifa shakllari sanaladi.

Xullas, fe'l turkumiga oid so'zlar semantik, morfologik, sintaktik jihatdan o'z tabiatiga ega. Uning semantik jihatida nisbatan o'zgaruvchan bo'lib, morfologik, sintaktik tabiati esa nisbatan barqarordir.

Biz bu o'rinda mazkur turkumning grammatik, qisman semantik xususiyatiga qisqa to'xtaldik. Ishimizning keyingi bo'limlarida fe'lning semantik xususiyatiga alohida to'xtalamiz. Qolaversa, fe'l turkumining semantik xususiyati, ma'no tuzilishi, ma'no jihatdan turlari alohida kuzatishni talab etadi.

I.3. Sodda yasama fe'llarning ma'no imkoniyatlari

Manbalarda fe'lning yasalishi borasida yetarlicha fikrlar mavjud [10;14;23]. Fe'l turkumiga xos yasovchi affikslarning ma'no imkoniyati umumiy so'z yasovchi affikslarning uslubiy xususiyatlari bilan bog'liq [25]. Fe'l yasashga xizmat qiluvchi qo'shimcha shakllar, ularning grammatik tabiati borasida tadqiqotchilar tomonidan bir qator fikrlar aytilgan. Biz bu o'rinda faol fe'l yasovchi affikslarning qo'shimcha ma'no imkoniyatlari borasida to'xtalishni maqsad qildik.

Nisbatan keyingi tadqiqotlarda faol so'z yasovchi affikslar sifatida -la, -lan, -lash, -lantir, -lashtir kabilar aytilishida ishimizning oldingi bandida aytib o'tdik. Tilshunos olim A.Hojiyevning ta'kidlashicha, fe'l yasovchi boshqa affikslar o'z vazifasini to'xtatib, mahsulsiz affikslarga aylangan [10,165]. Bu kabi (jumladan, -a: guldurra; -i: boyi, tinchi; -a(r): oqar, ko'kar; -a(y): sarg'ay, ko'pay) affikslarning mahsulsiz bo'lishiga sabablar bor.

-la affiksi. Fe'ldan boshqa barcha turkum so'zlardan fe'l yasashga xizmat qiladi. Bu shakl otdan fe'l yasaganda quyidagi ma'no ifodalarga ega bo'ladi.

1. Asbob-qurol bildiruvchi so'zlarga qo'shilib, asosdan anglashilgan asbob-qurol bilan bajariladigan ishni qilish ma'noli fe'l yasaydi: *egovlamoq, arralamoq, randalamoq, qoliplamoq* va h.k.

2. Predmetni so'z yasaliş asosidan anglashilgan narsa bilan ta'minlash, shunga ega qilish ma'noli fe'llar yasaydi: *moylamoq, nikellamoq, asfaltlamoq kabi. Xlorlamoq, magnitlamoq, mazutlamoq* so'zlari nisbatan yangi so'zlar sanaladi.

3. Predmetni so'z yasaliş asosidan anglashilgan joy, holatga olish ma'noli fe'llar yasaydi. Bunda so'z yasaliş asosi kishi tana a'zolarini bildiruvchi so'zlar bo'ladi: *orqalamoq, yelkalamoq, quchoqlamoq, changallamoq* va b.

4. Predmetni soʻz yasaliş asosi anglatgan narsani yuzaga keltirish, hosil qilish maʼnoli feʼllar yasaydi: *buklamoq, burdalamoq, gʻaramlamoq, kukunlamoq* va b.

5. Soʻz yasaliş asosidan anglashilgan narsani, ish-harakatni qilish, bajarish, yuzaga keltirish maʼnoli feʼllar yasaydi: *davolamoq, yakunlamoq, jazolamoq, hisoblamoq* va b.

6. Shaxs yoki predmetda soʻz yasaliş asosi anglatgan narsaning yuzaga kelishi, paydo boʻlishi maʼnoli feʼllar yasaydi: *gullamoq, boshoqlamoq, shoxlamoq, terlamoq* va h.k.

7. Joy, makon, shuningdek, narsaning yoʻnalishi, joylashish oʻrnini, tomonini bildiruvchi soʻzlardan shaxs yoki predmetning shu oʻrin, tomonga boʻlgan, shu obyektidagi harakatini, yoʻnalishini bildiruvchi feʼllar yasaydi: *balandlamoq, pastlamoq, olislamoq, oralamoq* kabi.

Mazkur shakl belgi bildiruvchi soʻzlar, yaʼni sifat va ravishlardan ham soʻz yasay oladi. Bu qoʻshimcha sifatning maʼno jihatdan barcha turidan emas, balki holat-xususiyat, shakl sifatlaridan soʻz yasay oladi. Bu qoʻshimchaning ravishdan feʼl yasashi cheklangan [10,148].

Nutqimizga oid narsa-tushunchalarni anglatuvchi soʻzlardan -la affiksi yordamida soʻz yasaliş asosi bildirgan narsani aytish, nutqiy ifodalash maʼnoli feʼllar yasaladi; *onamlamoq, ruschalamoq, sizlamoq*[10 ,148].

-lan affiksi. Bu affiksning -la hamda nisbat shaklini yasovchi -n affiksining birikuvidan hosil boʻlgani lingvistik adabiyotlarida aytilgan. Mazkur murakkab qoʻshimcha quyidagi tipdagi feʼllar yasaydi.

1. Shaxs yoki predmetda soʻz yasaliş asosidan anglatgan narsaning yuzaga kelishi, paydo boʻlishi maʼnoli feʼllar yasaydi: *rohatlanmoq, odatlanmoq, tashvishlanmoq, shubhalanmoq* kabi.

2. Shaxs yoki narsa-predmetning soʻz yasaliş asosi anglatgan ish, narsani qilish maʼnosidagi feʼllar yasaydi: *harakatlanmoq, himoyalanoq, foydalanmoq, oziqlanmoq* kabi.

3. So'z yasaliş asosi anglatgan narsaga o'zini ega qilish ma'noli fe'llar yasaydi: *qurollanmoq, odatlanmoq, qanoatlanmoq* kabi. *Tuzsizlanish, yog'sizlanish* kabi yasamalar nisbatan yangi [10,151].

-lash affiksi. Bu shakl ham nisbatan qadimiy bo'lib, -la hamda -sh affiksining qo'shilishidan hosil bo'lgan. Bu asosan ot va sifatdan fe'llar yasaydi.

1. Shaxs yoki predmetda so'z yasaliş asosidan anglashilgan belgi-xususiyatni kasb etishi, shunday bo'lishi ma'nosini bildiradi: *hayvonlashmoq, ko'pchiliklashmoq, markazlashmoq* va b.

2. Belgi bildiruvchi so'zlardan fe'l yasalmalar shaxs yoki predmetning so'z yasaliş asosidan anglashilgan belgi, xususiyat, xossani kasb etishi, unda shunday belgi, xususiyat kabilarning paydo bo'lishi ma'nosini bildiradi: *quyuqlashmoq, avomlashmoq, asabiylashmoq, arzonlashmoq* va b.

-lantir affiksi. Bu murakkab affiks -lan va -tir ortirma nisbat qo'shimchasidan hosil bo'lgan. Hozirgi o'zbek tilida bu qo'shimcha faol so'z yasashga xizmat qiladi. Bu fikrni -lashtir murakkab affiksi haqida ham aytish mumkin[10].

Umuman, fe'l yasovchi serunum affikslarning ma'no imkoniyatining kengligi kuzatildi. Bu shakllar qadimdan o'z vazifasini faol bajarib kelayotganligiga guvoh bo'lish mumkin. Faqat o'tmishda bu shakllarning ma'no imkoniyati hozirgi kundagidek faol bo'lmagan. Tilning taraqqiyoti davomida ushbu affikslarning so'z yasashdagi ifoda imkoniyatlari kengaygan.

II BOB

Fe'lning asosiy lug'aviy ma'no guruhlari

Ma'lumki, til va nutqning dialektik munosabatida so'z yetakchi o'rinni egallaydi. Chunki har bir so'z turli belgi va xususiyatlarning birligidan iborat muayyan ma'noviy qirra, tamon, imkoniyatlarga ega birlik sifatida mikrosistemani hosil qiladi [44]. Binobarin, muayyan sistema hosil qiluvchi til va nutq birligi bo'lgan so'zning eng muhim tomoni uning muayyan narsa-hodisa, voqea, hodisajarayon kabilarni ifodalovchi mantiqiy jihati, ya'ni uning ma'no tomonidir. Shunga ko'ra, o'zbek tilshunosligida, ayniqsa, keyingi o'n yilliklarda so'zga, so'z ma'nosiga, uni tadqiq qilishga e'tibor ancha kuchaydi [43;46;48]. Xususan, fe'l, uning ma'nosi, gapdagi o'rni, roli, gapni tashkil qilishdagi mavqeyi borasida qator ishlar amalga oshirildi. Bu tadqiqotlarda fe'l so'zlarning boshqa so'z turkumlariga oid so'zlar sirasida eng faol, shuningdek, murakkab va ma'no jihatdan eng boy guruh ekanligi yana bir bor o'z amaliy isbotini topdi. Buning natijasida fe'lning semantik guruhlari alohida-alohida tadqiq etildi. Fe'l ma'no imkoniyatlari chuqurroq tahlil etildi. Fe'l turkumiga osid so'zlarning uslubiy imkoniyatlari borasida manbalarda fikrlar aytilgan. Biroq tilimizning leksik qatlami undagi so'zlar vaqt o'tgan sayin sezilarli ma'no o'zgarishlariga uchrashi, ma'no kengayishi yoki torayishining kuzatilishi tabiiy. Bu esa yangi-yangi tadqiqotlar uchun asos bo'la oladi, albatta. Bizning mazkur kichik tadqiqotimiz ham ayni shu masalaga, ya'ni fe'llarning ma'no imkoniyatlariga qaratilgan.

II.1. Leksemaning semantik tuzilishi xususida

Leksema serqirra mohiyatli lisoniy birlik ekanligi allaqochoch o'z isbotini topgan hodisalardir [18;44]. Leksikaga serqirra hodisa sifatida yondashar ekanmiz, leksemalarning har bir qirrasini nisbiy mustaqil deb tan olishimiz, ulardan umumiylik (o'xshatish) va xususiyliklarni (farqlarni) aniqlash, ularni guruhlariga ajratish, ma'lum tasniflashni amalga oshirishimiz lozimdir. Buning uchun esa bizdan zamonaviy tasnifning umumiy qonun-qoidalarini atroflicha bilishi talab

etiladi. Soʻz leksika uchun ham, grammatika uchun ham asosiy va zaruriy bilik sanaladi.

Soʻz tildagi asosiy butunlik sanaladi. Bu butunlik esa oʻz funksiyasini grammatik shakllanishi natijasida bajaradi. Soʻz mohiyatini tushunmoq uchun uning fonetik, leksik va grammatik tomonlariga eʼtibor berish kerak.

Har bir soʻz tovush tomoni bilan maʼno tomonining birlashmasidan iboratdir. Soʻzning tovush tomoni soʻzning oʻzi emas, balki faqat uning materiali tashqi tomonidir. Nutq tovushi oʻz-oʻzicha maʼnoni bildirmaydi, chunki yolgʻiz olingan bir tovushning yoki tartibsiz keltirilgan tovushlar jamlanmasining maʼnosi yoʻq, shuning uchun bular soʻz sanalmaydi. Nutq tovushlari jamlanmasi muayyan bir tilning qoida-qonunlariga muvofiq maʼlum tartibda kelgandagina, bir leksik-grammatik butunlik holida maʼno ifodalay oladi.

Soʻz maʼnosi soʻz tuzilishida alohida bir soha sifatida oʻrganiladi. Soʻz maʼnosi, bir tomondan, soʻz masalasiga, ikkinchidan, til va tafakkurning oʻzaro munosabati masalasiga tegishlidir.

Hozirgi zamon tilshunosligida soʻzning maʼnolari bilan ish koʻradigan maxsus boʻlim, yaʼni semasiologiya ajralib chiqqan [38;41]. Bu ham soʻz maʼnosining taraqqiyoti jadal borayotganligidan dalolat beradi.

Soʻz maʼnosi soʻzning tovush tomoni bilan hamisha birga yashaydi. Soʻz bir va koʻp maʼnoni bildirishi yoki toʻgʻri va koʻchma maʼnolarda ishlatilishi mumkin. Soʻzning har qanday maʼnosi matnda aniqlanadi. Soʻzning u yoki bu maʼnosining namoyon boʻlishida matn hal qiluvchi rol oʻynaydi.

Soʻz predmet va voqea-hodisalar haqidagi aniq va mavhum tushuncha-tasavvurlarni anglatadi. Soʻzning predmet, voqea-hodisalar, belgi, harakat haqidagi dastlabki asosiy maʼnosi, yaʼni real maʼnosi soʻzning leksik (atash) maʼnosi hisoblanadi. Kitob soʻzi oʻquv qurollaridan biri, bu soʻzning leksik maʼnosidir.

Yana misol: Daraxt — oʻsimlik, shamol — tabiiy hodisalardan biri, qizil — predmet belgisi, yugurmoq — harakat kabi maʼnolar shu soʻzlarning atash maʼnolaridir.

Keldi — soʻz turkumiga koʻra feʼl, shakli — sof (tuslanuvchi), aspekti — boʻlishli, mayli — aniqlik, nisbati — aniq, yaqin oʻtgan zamon, tuzilishi — sodda, uchinchi shaxs birlikda, gapdagi vazifasi — kesim va shu kabilar. Biroq mazkur soʻzning qoʻshimcha maʼnolari oʻziga yarasha kuzatishni talab etadi. Bu borada keyinroq toʻxtalamiz.

Jamiyat rivoji bilan bir qatorda, til ham muntazam rivojlanib boradi. Natijada bir maʼnoli soʻzlar bora-bora qoʻshimcha maʼnolar kasb eta boradi. Davr bilan bogʻliq ravishda soʻz maʼnosining kengayishi bilan birga, maʼno torayishi ham kuzatiladi.

Nutqimizdagi aksariyat soʻzlar koʻp maʼnolidir. “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” maʼlumotlariga koʻra [36], tilimizdagi ayrim feʼl soʻzlar oʻnlab maʼno kasb etganligiga guvoh boʻlamiz. Jumladan, *tushmoq, turmoq, kirmoq, chizmoq, turmoq* soʻzlarining yigirmadan ortiq maʼnolari manbalarda berilganligiga guvoh boʻldik [36]. Oʻzbek tilida aksariyat feʼllar bir necha maʼnoni bildirib keladi.

Ikki yoki undan ortiq tushunchani yo tasavvurni ifodalab, bir necha maʼnoni bildirib keluvchi soʻzlar koʻp maʼnoli soʻzlar yoki polisemiya deyiladi. Koʻp maʼnoli soʻzlar turli maʼnoni anglatishini yoki uning xilma-xil maʼno nozikliklarini bildirishini matnda aniqlash mumkin. Soʻzlardagi koʻp maʼnolilik hamda soʻz maʼnolarining nozik qoʻshimcha maʼnolari badiiy adabiyotda muhim tasviriy vosita sifatida keng qoʻllanadi.

Soʻz maʼlum predmet yo voqea-hodisa toʻgʻrisidagi tushunchani ifodalab, real leksik maʼnoni anglatishi bilan birga, ayni zamonda shu soʻz boshqa matnda boshqa xil maʼnoni bildirib kelishi ham mumkin.

Soʻzning leksik maʼnosi soʻzning toʻgʻri maʼnosi sanaladi. Masalan, quyosh, yulduz — planeta. Bu maʼnolar quyosh, yulduz soʻzlarining leksik, bosh maʼnolaridir.

Kishilar ishlab chiqarish jarayonidagi, turmush va boshqa sohalardagi oʻz tajribalariga tayanib, soʻzlarni oʻxshatish, kinoya, mubolagʻa, sifatlash va boshqa usullar bilan xilma-xil koʻchma maʼnolarda foydalanadi.

Demak, soʻzning oʻz, real, leksik, toʻgʻri maʼnosidan tashqari, oʻxshatish, mubolagʻa yo kinoya kabi usullar bilan boshqa maʼnolarda qoʻllanishi soʻzning koʻchma maʼnosi deyiladi.

Til kishilik jamiyati bilan birga paydo boʻlgan, u bilan bogʻliq holda rivojlanib kelmoqda. Bu taraqqiyot davomida tilning lugʻat tarkibi, soʻz boyligi asta-sekinlik bilan oʻzgaradi va boyib boradi. Lugʻat tarkibidagi ayrim soʻzlar eskirib, isteʼmoldan chiqib qoladi, anchagina yangi soʻzlar paydo boʻladi yoki boshqa tillardan yangi soʻzlar qabul qilinadi.

Til lugʻat tarkibining oʻzgarishi bilan bogʻliq ravishda soʻz maʼnolari ham oʻzgarib borishi mumkin. Bu oʻzgarish tilning butun tarixiy taraqqiyoti davomida yuz beradi. Baʼzi soʻzlar shaklan oʻzgarmay, maʼno tomondan oʻzgaradi, bir maʼnoni bildirgan soʻz bir necha maʼnoni ifodalay boshlaydi va hokazo.

Davrlar oʻtishi bilan ikki yo uch maʼnoni ifodalagan soʻz bir yoki ikki maʼnosini yoʻqotishi ham mumkin. Bunday semantik hodisa tilda soʻz maʼnolarining torayishi nomi bilan yuritiladi. Masalan, oʻzbek tilida ichkari soʻzi ham biror bino yo narsaning ichki qismini, ham ilgari xotin-qizlarning huquqsizligini ifodalagan boʻlsa, hozirgi davrda u soʻz faqat birgina, maʼno (maʼlum bino yoki narsaning ichkarisi)ni bildiradi. Kiyik soʻzi XI asrda Mahmud Koshgʻariy izohiga koʻra har bir vahshiy hayvonga nisbatan qoʻllangan. Vaqt oʻtishi bilan ularning bir xiligagina (“ohu”ga) xoslanib qolgan. Bu misolda soʻz maʼnosi toʻliq ravishda toraygandir. Hozirgi oʻzbek milliy adabiy tilida osh, joy, xavf, bor, hikmat soʻzlari maʼnosi toraygan soʻzlar jumlasidandir.

Koʻp maʼnoli soʻzlar borasida soʻz borsa, koʻpincha ot turkumiga oid soʻzlar va ularning qoʻshimcha maʼnolari izohlanganligiga guvoh boʻlamiz. Biroq kuzatishlar koʻrsatadiki, feʼl turkumiga oid soʻzlardagi polisemiya oʻta kuchli. “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”dagi maʼlumotlar ham buni tasdiqlaydi. Buning bosh sababi, bizningcha, mazkur soʻzlarning zamon jihatdan qadimiyligi bilan bogʻliq.

Soʻz maʼnolarining tarixiy oʻzgaruvchanligi har bir til taraqqiyotining ichki qonuniyatlari asosida maydonga keladi. Tildagi bunday hollar miqdor oʻzgarishlarining sifat oʻzgarishlariga oʻtishini koʻrsatib beradi.

II.2. Feʼlning y lugʻaviy maʼno guruhlarining manbalardagi ifodasi

Hozirgi zamon darsliklarida feʼlning maʼno guruhlariga keng oʻrin ajratilganligiga guvoh boʻlamiz [12;22;29].

Prof. H.Gʻ.Neʼmatov rahbarligi asosida tuzilgan darslikda (maʼlum vaqt amalda boʻlgan umumtaʼlim darsligida) keltirilgan “Feʼllarning umumiy xususiyatlari” mavzusida feʼlning atash maʼnosi haqida soʻz ketar ekan, quyidagicha maʼlumotlar bayon etilgan: “Feʼllar ish-harakat yoki holatni atab keladi. Feʼllar holatni atab kelganda ham, uni jarayon turzida bir holatdan ikkinchi holatga oʻtishi maʼnosi bilan beradi. (Gul qizil – sifat - kesim; gulning barqaror, turgʻun belgisini ifodalab kelmoqda. Gul qizardi – feʼl -kesim; gulning bir holatdan (qizil boʻlmagan holatdan) ikkinchi holatga – qizarganlik holatiga oʻtishini harakat, jarayon sifatida ifodalab kelmoqda. Shuning uchun harakat, jarayon maʼnosi feʼllarning umumiy maʼnosini tashkil etadi. Bu maʼno barcha feʼllar uchun xosdir” [17,26]. Darslikda ushbu mavzu bilan bogʻliq oʻndan ortiq topshiriqli mashqlar keltirilgan.

Holat feʼllari ham shaxs, ham narsa-hodisa harakati uchun qoʻllaniladigan soʻzlar sanaladi. Shaxsning ichki holati his-tuyqularini ifoda etuvchi feʼllar sifatida darslikda *uxlamoq, kulmoq, yigʻlamoq, dam olmoq, shoshmoq, jilmaymoq, hadiksiramoq, qoʻrqmoq, hayajonlanmoq, tabassum qilmoq, shodlanmoq, xafa boʻlmoq, xurram boʻlmoq, quvonmoq* va h.k.lar mansub.

Narsa-hodisaning bir holatdan ikkinchi holatga oʻtishini anglatuvchi feʼllar sirasiga *yiqlilmoq, yigʻlatmoq, mingʻillamoq, shuvullamoq, guvillamo, lovullamoq, pishmoq, qaynamoq* va h.k.lar mansub boʻla oladi.

Bir qator soʻzlar borki, oraliqda turadi, yaʼni bir maʼnosi bilan narsa-hodisa uchun qoʻllanadi. Bu biz tadqiq etayotgan feʼl polisemiyasi bilan bogʻliq holda yuz beradi. Bularga *isimoq*, (sovib ketdim – suv isidi), *sovumoq* (sovib ketdim – suv

sovudi), *o'smoq* (Bolaning bo'yi ancha o'sgan – Nihol o'sdi) *qizardi* (Salimaxon qizardi – Gul qizardi) kabilar misol bo'ladi.

Darslik so'ngida quyidagich topshiriq keltiriladi:

Fe'llarning yirish-harakat, nutq, natijali faoliyat, holat ma'noviy guruhlardagi so'zlarga ma'nodoshlar toping, so'zlarni o'z va ko'chma ma'nolarda qo'llab, gaplar tuzish bo'yicha “Topqirlar bellashuvi” o'yin-topshirig'ini o'tkazib, g'oliblarni aniqlang. Umuman, fe'lning ma'no guruhlarini tadqiqi bevosita va bilvosita fe'l polisemiyasi bilan bog'liq.

Xullas, darslikda fe'lning ma'noviy guruhlari hajman katta, nisbatan ko'p soatga mo'ljallab yoritilgan. Mashqlar asosli tanlanganligiga guvoh bo'lamiz.

Umumta'lim maktablaridagi 5-, 6-, 7-sinf Ona tili darsliklarining keyingi avlodi N.Mahmudov, A.Nurmanovlar rahbarligida tuzildi [12]. Mazkur manbada fe'llarning berilishi, talqini oldingi manbadan bir oz farqlanadi. Bu farqlanishni mazkur hodisaning nazariy jihatdan ozligi va mashqlarning tubdan farq qilishida ko'rish mumkin.

Darslikda fe'lning semantik xususiyati (atash ma'nosi) haqida so'z borar ekan, “... shaxs yoki narsaning harakat, holatni atab kelgan so'z turkumi fe'l deyiladi. Fe'llardan anglashilgan harakat va holat ma'lum shaxs yoki narsa tomonidan bajariladi. Ana shu shaxs yoki narsa harakatning bajaruvchisi sanaladi” tarzidagi qoida beriladi.

“Harakat va holat fe'llari” mavzusida quyidagilar e'tirof etiladi: “Fe'llar nimani atab kelishiga ko'ra harakat fe'llari va holat fe'llariga bo'linadi. Shaxs va narsalarning jismoniy faoliyati natijasida ro'y bergan harakatni bildiruvchi fe'llar harakat fe'llari hisoblanadi. Shaxslarning ichki kechinmalari va narsalarning bir holatdan ikkinchi holatga o'tish jarayonini ifodalovchi fe'llar esa holat fe'llari sanaladi” [12,32].

Mazkur darslikda fe'lning ma'noviy guruhlari bitta mavzu ostida, qisqa tarzda bayon etiladi. Mavzuning “bilib oling” qismida “fe'llar qanday harakat-holatni ifodalashiga ko'ra nutqiy faoliyat fe'llari, aqliy faoliyat fe'llari, jismoniy faoliyat

fe'llari, holat fe'llari kabi ma'no guruhlariga ajratiladi” tarzidagi qoida beriladi [12,78].

Mavzu boshlanishida so'zlar gururhi keltirilib, fe'lning ma'noviy guruhlarini jadvalga joylashtirilish so'ralganligi kuzatiladi.

195-mashqda kichkina matn keltirilgan bo'lib, holat fe'llarini topib izohlash so'ralgan. Matndan parcha keltirishni joiz topdik:

Qobil bobo yalangbosh, yalang oyoq, yaktakchan og'il eshigi yonida turib dag'- dag' titraydi, tizzalari bukilib-bukilib ketadi, ko'zlari jovdiraydi, hammaga qaraydi, amoo hech ikmni ko'rmaydi. Xotinlar o'g'rini qarg'aydi, it huradi, tovuqlar g'ag'aqlaydi. Kimdir shunday kichkina teshikdan ho'kix sig'ishiga ishonmasligi to'g'risida kishilarga gap ma'qullaydi (A.Qahhor).

Ko'rinadiki, mazkur parchada qo'llangan aksariyat fe'llar holat fe'llari sanaladi.

Darslikda keltirilgan 196-197-mashqlar ham fe'lning ma'no jihatdan turlarini topishga qaratilgan.

Mavzu oxirida quyidagicha savollar keltiriladi:

- 1.Jismoniy faoliyat fe'llari deb nimaga aytiladi?
- 2.Aqliy faoliyat fe'llariga misollar keltiring?
- 3.Nutqiy faoliyat fe'llariga misollar ayting?
- 4.Holat fe'llari deb nimaga aytiladi?

Mavzuning “Uyga vazifa” qismida “Uyimizga mehmon keldi” mavzusida matn tuzish so'ralgan. Bunga fe'lning ma'no turlari qo'llanishi talab etilgan.

Mavzuni nisbatan qisqa bayon etilishi o'qituvchiga ko'proq mas'uliyat yuklaydi. Mavzuni o'quvchiga tushuntirib berish jarayonida o'qituvchi faol bo'lishi, o'quvchilarga hodisani to'laqonli tushuntirib berishda jonbozlik ko'rsatishi kerak bo'ladi. Aks qolda o'quvchilar ushbu mavzuni yetarlicha anglamay qolishlari mumkin.

N.Mahmudov, A. Nurmonovlar boshchiligida litsey o'quvchilari uchun tuzilgan “Hozirgi o'zbek adabiy tili” (2-jild) kitobdagi [22] “Fe'l va uning uslubiy xususiyatlari ” mavzusida quyidagi bayon kuzatiladi:

Fe'l qanday harakat va holatni ifodalashiga ko'ra bir qancha turlarga bo'linadi.

Yumush fe'li: ishladi, mehnat qildi, ter to'kdi.

Tafakkur fe'li: o'yladi, o'qidi, kashf qildi.

Sezgi fe'li: sezdi, his qildi.

Ruhiy holat fe'li: kuldi, xurram bo'ldi, iztirob chekdi, qarg'adi.

Nutq fe'li: gapirdi, so'zladi,

Ishora fe'llari: imo qildi, labini burdi, ko'zini qisdi.

Jismoniy holat fe'li: og'ridi, isitmasi chiqdi, xastalandi, sog'aydi, kuchaydi, charchadi.

Tabiiy holat fe'llari: eridi, muzladi, yotdi, uxladi.

Ko'rish fe'llari: qaradi, ko'rdi, boqdi, termuldi.

Yuqoridagi fe'l turlari bir necha fe'llarni qamrab oladi. Ular ma'no imkoniyati, uslubiga ko'ra o'zaro farqlanadi.

Harakat-holatni kuchli va kuchsizligiga ko'ra farqlanishi: *jilmaymoq, kulimsiramoq, kulmoq.*

Ijobiy va salbiy bo'yoqqa ega bo'lganligiga ko'ra: *kulmoq - tirjayomq, so'zlamoq - to'ng'illamoq, ming'irlamoq.*

Uslubiy xoslanishga ko'ra: *kulmoq*, (umumiste'moldagi so'z) – *tabassum qilmoq*, (badiiy uslub), *so'zlamoq*, (umumiste'moldagi so'z) *nutq irod etmoq* (badiiy uslub).

Yuqoridagi fe'llarning o'z o'rnida ishlatilishi ma'lum bir uslub bilan boqliq.

Keyingi topshiriqlar bevosita yuqoridagi nazariyalar bilan bog'liq. Masalan, 294-mashqda gaplar berilgan bo'lib, ulardan harakat va holat fe'llarini ajratib yozish so'ralgan.

Keyingi topshiriqqa ko'ra fe'lning ma'no jihatidan turlari tafsiflangan jadvalni misollar bilan to'ldirish so'ralgan.

Umuman, litsey darsligida fe'l ma'no jihatdan 3 turga bo'linganligiga guvoh bo'lamiz. Manbada ko'proq fe'llarning ma'no nozikliklariga, uslubiy imkoniyatlariga baho berilgan. Ayrim polisemantik so'zlar izohlangan.

Oliy tal'im darsliklarida ham fe'ning asosiy lug'aviy ma'no guruhlari keltirilganligiga guvoh bo'lamiz [28;29]. Shunday darsliklardan biri 2007-yil nashr etilgan "Hozirgi o'zbek tili" kitobi hisoblanadi [29]. Mazkur manba tilshunoslik faniga oid ko'pgina bo'limlarini qamrab olgan. Mavzularni yoritishda 1950-1980-yillarda amalda bo'lgan darslik va qo'llanmalarga tayanilgan.

Darslik bakalavriat bosqichidagi talabalar uchun mo'ljallanganligi tufayli unda fanimizning hali yechimini topmagan munozaralari nazariy masalalariga to'xtalinmagan. Darslikda ba'zi bir fe'llarning ma'no imkoniyatigina sharhlanganligiga guvoh bo'lamiz.

II.3. Fe'l lug'aviy ma'no guruhlari va ularning qo'shimcha ma'nolari

Har bir so'z turkumini lug'aviy ma'no guruhlariga bo'lib o'rganish shu so'z turkumining ma'no imkoniyatlarini to'laqonli tadqiq etishga qo'l kelishi tabiiydir. Fe'llarni ma'no jihatdan turlarga bo'lib o'rganish, fe'l so'zlar ma'no imkoniyatlarini tahlil va talqin etish semasiologiya, leksikografiya bo'limlarini to'ldirish, takomillashtirishda qo'l keladi. Fe'ning ma'no tuzilishi, ma'no tarkibi nihoyatda xilma-xil bo'lib, bu o'zbek tilshunosligida (turkiy tilshunoslikda ham) nisbatan kam o'rganilgan. So'zning, jumladan, fe'ning ma'no tuzilishlarini o'rganish, tadqiq va talqin etish katta ilmiy-nazariy, amaliy ahamiyaga ham ega.

Fe'ning lug'aviy ma'no guruhlarini alohida-alohida sharhlash yaqin yillarda yaratilgan ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari darsliklarida o'z ifodasiga ega.

Fe'ning ma'noviy guruhlarini manbalarda berilishi birinchilardan bo'lib umumiy o'rta ta'lim bo'g'inida o'z aksini topdi. Prof. H.G'.Ne'matov ta'limoti asosida yuzaga kelgan 6-sinf ona tili darsligida mazkur mavzuga alohida e'tibor qaratilganligiga guvoq bo'ldik.

Fe'l va uning ma'nosi, gapdagi o'rni, roli borasida qator ishlar amalga oshirilgan. Biroq tilimizning leksik qatlami, undagi so'zlar vaqt o'tishi bilan ma'no taraqqiyotiga uchrashi, ozgarib turishi tabiiy hol. Bu esa yangi-yangi tadqiqotlarga asos bo'la oladi.

Ushbu manbada fe'ning manoviy guruhlari quyidagi tarzda beriladi: yurish-harakat fe'llari, nutq fe'llari, tafakkur fe'llari, natijali faoliyat fe'llari, holat fe'llari

II.3.1. Harakat fe'llarinig ma'no xususiyatlari

Fe'ning ma'no jihaddan katta guruhini harakat fe'llari tashkil etadi. Ular inson yoki narsa, jonzorlar harakatini ifoda etadi. Yurish-harakat fe'llari fe'ning ma'no jihatdan alohida bir turini hosil qiladi. Bu so'zlar o'zining polisemantik, sinonimik xususiyatlariga egaligi bilan xarakterlanadi. Yurish-harakat fe'llarini o'z navbatida bir necha LMG (luqaviy ma'no guruhlari)ga bo'lish mumkin:

Yurish bilan bog'liq harakatni ifoda etuvchi LMG. Bu guruhga *yurmoq, chopmoq, chopqillamoq, qimirlamoq, sudralmoq, siljimoq, emaklamoq, imillamoq* kabi fe'llarni misol tariqasida keltirish mumkin. Bu guruhdagi so'zlar bir umumiy ma'no ostida birlashsa ham, o'zining ma'no darajasi bilan farqlanadi. Ushbu guruh a'zolarini ma'no daraja oshishiga ko'ra quyidagicha joylashtirish mumkin: *imillamoq, sudralmoq, yurmoq, chopqillamoq, chopmoq, yelmoq*.

Yuqoridagi LMGda markaz so'zlar bilan birga, qurshov so'zlar ham mavjud. Bularga *sudralmoq, siljimoq, emaklamoq* kabilar mansubdir. Bular, odatda, ko'chma ma'nosi bilangina yurish harakatiga nisbatan qo'llana oladi.

Uchish harakati bilan bog'liq fe'llar LMGni hosil qiluvchi so'zlarga uchmoq, ko'zlamoq, ko'tarilmoq, balandlanmoq, parvoz qilmoq kabilar mansubdir.

Yurish bilan bog'liq harakatning turli ko'rinishlarini ifoda etuvchi LMGni *lo'kkilamoq, lapanglamoq, yo'rg'illamoq, pildiramoq, shipillamoq, odimlamoq*, kabilar tashkil etadi.

Yurish- harakat fe'llari o'zining keng ma'no imkoniyati, uslubiy vazifalari bilan ajralib turadi. Mazkur fe'llar o'z navbatida yanada kichik LMGlarga bo'linishi ham kuzatiladi. O'zbek tilida harakat fe'llari yo'nalishni bildirishiga ko'ra ikkiga bo'linadi: gorizontaal va vertikal harakat fe'llari. Gorizontaal harakat fe'llariga ildamlamoq, yurmoq, yotmoq, sug'ormoq, haydamoq kabilar mansub bo'lsa, bertikal harakat fe'llariga tashlamoq, tushmoq, pastlamoq, sho'ng'imoq, tomchilamoq, ko'tarmoq, balandlamoq, oshmoq kabilar misol bo'ladi.

Kuzatishlar ko'rsatadiki, harakat va holat fe'llari chegarasi mutlaq emas. Matnda qo'shimcha ma'no ifodasi bilan ular chegarasi buzilib turadi. Masalan, *parvoz qimoq* asl ma'nosiga ko'ra harakat fe'li bo'lsa, ko'chma ma'nosi bilan mazkur so'z holat fe'li hisoblanadi.

Tilimiz boyligi, ma'no ifodaning kengligi, ayniqsa, harakat fe'llarida o'zgacha tarzda namoyon bo'ladi. Nutqimizda 450 ga yaqin harakat fe'llari borligi aytiladi [26].

Harakat fe'llari nutq jarayonida ko'pincha holat fe'llari bilan qorishib ketadi. Aniqrog'i, muayyan bir so'z bir ma'no imkoniyati bilan fe'lining harakat guruhiga, boshqa ma'nosi bilan holat guruhiga tegishli bo'lishi mumkin. Masalan, tush so'zi izohli lug'atda yigirmadan ortiq ma'no ifodaga egaligi aytiladi [36]. Mazkur ma'nolarning aksariyati holat ma'nosida kelganligi bilan xarakterlanadi. *Tushmoq* so'zi aslida "yuqoridan, balanddan pastga qarab harakat qilmoq" ma'no ifodasiga ega: *Olatoy asta-sekin narvon bilan pastga tusha boshladi.* (I.Sulaymonov) *Tushmoq* so'zi ko'chma ma'noda harakat ma'nosida emas, balki holat ma'no ifodasiga ega bo'ladi: *U minbardan tushdi-yu, oyoq-qo'li bo'shashib ketdi.* (M.Mansurov)

Ko'rinadiki, bu so'z birinchi misolda harakat subyekt (shaxs) tomonidan bajarilganlikni anglatrsa, ikkinchi misolda harakat subyekt ta'sirida obyekt tomonidan amalga oshirilganlikni bildiradi. Ularning valentligi ham aynan shunga ko'ra farqlanadi.

Bu fikrni *balandlamoq, sho'ng'imoq, yugurmoq, pastlamoq* va h.k. so'zlarga nisbatan ham aytish mumkin.

Umuman, harakat fe'llarining keng ma'no imkoniyatliligi quyidagilar bilan bog'liq:

a) harakat fe'llari keng iste'moldagi fe'l, shu sababdan ularning ma'no imkoniyatlari kengaygan;

b) harakat fe'llari nisbatan qadimiyroq qatlamga oid, mana shu holat ularda polisemiyaga moyillikning kuchayishiga sabab bo'lgan.

II.3.2. Nutq fe'llarining ma'no xususiyati

Ma'lumki, aloqa-aralashuvning eng muhim birligi tildir. U nutq orqali voqelanadi. Qolaversa, lingvistik vositalardan tashqari ekstrolingvistik vositalar ham borki, o'rni bilan fikr ifodalashning qulay usuli bo'lishi mumkin. Masalan, o'quv dargohlaridagi darsga chorlovchi qo'hg'iroq har qanday chaqiruv so'zdan (nutq fe'lidan) qulay va ishonchli bo'la olishi mumkin. Demakki, vaziyat talabi bilan turli ramz, timsol yoki sun'iy til (jumladan, informatsion tillar) fikr ifodasi uchun o'ta qulay vosita bo'lishi mumkin. Sunniy tillarning tabiiy tillardan farqi shundaki, ular bir ma'noli – bir shaklda bir ma'no, bir ramzda bir vazifa muvofiq keladi. Tilda esa bir shaklda bir necha ma'no yoki bir ma'noni bir necha shakl ifodalashi mumkin. Shuningdek, aloqa munosabatda muhim sanalgan ifodaviylik, ta'sirchanlik, obrazlilik kabilarning bo'lishi ham til va uning ko'rinishi bo'lgan nutq bilan bog'liq [37].

Axborot tashuvchi ekstrolingvistik vositalar alohida tadqiqot obyekti hisoblanadi. Biz bu o'rinda nutq fe'llari va ularning semantik tabiati, ularning tartiblanishi haqida fikr yuritamiz. Nutq fe'llariga ham darsliklarda keng o'rin ajratilganligiga guvoq bo'lamiz. Nutq fe'llari so'zlash bilan boqliq qarakat va holatni ifoda etadi. Bu qatorga *gapirmoq, so'zlamoq, aytmoq, demoq, bidirlamoq, to'nqillamoq, quldiramoq, vaysamoq, vaqillamoq, javramoq, bobillab bermoq, javob bermoq, vaqillab ketmoq, qichqirmoq, shivirlamoq, qayqirmoq, pichirlamoq, baqirmoq, bayon etmoq, so'zini bo'lmoq, tilga kirmoq, tushuntirmoq, irod etmoq* va b. fe'llar mansub.

Nutq fe'llari quyidagi jihadlari bilan farqlanadi:

1. Ishlatilish doirasiga ko'ra;
2. Ishlatilish davriga ko'ra;
3. Tarkibiga ko'ra;
4. Uslubiy bo'yoqdorligiga ko'ra.

Nutq fe'llarining ishlatilishi chegaralangan guruhiga *irod etmoq, vaysamoq, to'ng'illamoq, bayon etmoq* va h.k.lar mansub. *Sozlamoq, gapirmoq, demoq,*

pichirlamoq, javob bermoq, g'o'ldiramoq kabilarning ishlatilish doirasi chegaralanmagan.

Ishlatilish davriga ko'ra nutq fe'llarini ikkiga bo'lish mumkin:

1. Zamonaviy qatlamga oid nutq fe'llari.
2. Eskilik bo'yog'iga mansub nutq fe'llari.

Eski qatlamga oid nutq fe'llariga *savlon(so'zlamok)*, *so'z teg (xabar ber)*, *so'z suz (saralab so'zlamok, tiniq fikr bildirmok)* va b.ni misol qilib ko'rsatish mumkin. Qadimgi turkey tilda birgina so'zlamok fe'lining o'nlab shakllari mavjudligi kuzatiladi[4, 80-81].

Nutq fe'llariga so'zlash bilan bog'liq turli darajadagi so'zlar mansub.

Demoq fe'li muallif gapining kesimi bo'lib, ko'chirma gap bilan kelganda aytmoq, so'zlamok, gapirmok, fe'llari bilan almashishi mumkin.

Nutq fe'llarini ham bir necha LMGga bo'lish mumkin:

1. So'zlash bilan boqliq nutq fe'llari: *demoq, gapirmok, aytmoq, so'zlamok* va h. k.

Mazkur guruhni o'z navbatida yana ikkiga bo'lish mumkin:

a) salbiy ma'no ifodasi uchun qo'llanuvchi nutq fe'llari: *vaysamok, baqirmok, o'shqirmok, bidirlamok* va b.

b) betaraf ma'no ifodasiga ega nutq fe'llari: *pichirlamok, shivirlamok, hayqirmok, qichqirmok, tilga kirmok* va b.

2. So'rash bilan bog'liq nutq fe'llari LMGga *so'ramok, iltijo qilmoq, yalinmoq, o'tinmoq, yolvormok kabilar* misol bo'la oladi.

Nutq fe'llari matn tarkibida turli ma'no nozikliklari bilan farqlanadi. Shu nuqtayi nazardan nutq fe'llarini quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

- a) ishlatilish doirasiga ko'ra nutq fe'llari guruhi;
- b) ishlatilish davriga ko'ra nutq fe'llari guruhi;
- b) uslubiy bo'yoqdorligiga ko'ra nutq fe'llari guruhi.

So'zlar ishlatilish doirasiga ko'ra, avvalo, 2ga bo'linadi. Birinchidan, ishlatilish doirasi chegaralanmagan so'zlar, ikkinchidan, ishlatilish doirasi chegaralangan so'zlar. Nutq fe'llari doirasida ishlatilish doirasi chegaralangan

soʻzlar guruhiga *toʻngʻillamoq*, *gʻoʻldiramoq*, *vaysamoq*, *irod etmoq*, *bayon etmoq* kabilar mansub.

Ishlatilish davriga koʻra nutq feʼllarini ikkiga boʻlish mumkin:

a) zamonaviy qatlamga oid nutq feʼllari;

b) eski qatlamga oid nutq feʼllari.

Zamonaviy qatlam deganda, umumxalq ishlatadigan feʼllar nazarda tutiladi. Nutq feʼllarining katta qismi bunga misol boʻla oladi.

Soʻzlamoq, *gapirmoq*, *shivirlamoq*, *pichirlamoq* va h.k.lar bunga misol boʻla oladi. *Irod etmoq*, *qisman bayon etmoq* kabilarning nisbatan eskirganligi kuzatiladi. *Irod etmoq* koʻpgina tarixiy mavzuga oid asarlarda uchraydi.

Irod (iyrod) arbcha soʻz boʻlib, ishora qilish, havola qilish maʼnolarini bildiradi. *Irod etmoq* soʻzlash bilan boqliq maʼno ifodaga ega. *Iskandar askarlarini yigʻib, qisqacha nutq irod etgandan keyin, shu qalʼaga birinchi boʻlib chiqqan koʻngillilarga juda koʻp pul va martabalar vaʼda qildi.* (M.Osim)

Uslubiy boʻyoqdorligiga koʻra nutq feʼllarini ikkiga boʻlish mumkin:

a) uslubiy boʻyoqsil soʻzlar;

b) uslubiy boʻyoqdor soʻzlar.

Nutq feʼllarining bir qismini uslubiy boʻyoqsiz soʻzlar tashkil etadi.

Uslubiy boʻyoqdor nutq feʼllari oʻz navbatida yana ikkiga boʻlinadi:

a) ijobiy boʻyoqdor nutq feʼllari;

b) salbiy boʻyoqdor nutq feʼllari.

Ijobiy boʻyoqdor nutq feʼllariga *irod etmoq*, *eʼtirof etmoq*, *bayon etmoq* kabilar mansub. Salbiy boʻyoqdor soʻzlarga *baqirmoq*, *toʻngʻillamoq*, *guldiramoq*, *vaysamoq*, *vaqillamoq*, *javramoq*, *bobillab bermoq* kabilar mansub.

Baqirmoq feʼli luqatda toʻrt maʼno ostida izohlanganligiga guvoh boʻlamiz [36,187]. Bu soʻz nutq bilan bogʻliq holatni ifodalasagina nutq feʼli boʻlib keladi. Chunki mazkur soʻz “bor ovoz bilan qichqirmoq, ogʻriqdan yoki qoʻrquvdan dod solmoq, dod-faryod koʻtarmoq” kabi maʼno ifodalariga ham ega.

Baqirmoq soʻzi koʻchma maʼnoda “gapirmoq, gerdaymoq” kabi ifoda semasiga ega. Bor – baqirar, yoʻq – chaqirar (Maqol).

Do'q urmoq, po'pisa qimoq ma'nolarida ushbu so'z nutq fe'li hisoblanadi. – Baqirmang, - dedi xo'mrayib Yo'lchi, - shu vaqtga davr eshitdim, chidadim, endi-chiq, yo'q! (Oybek).

To'ng'illamoq. 1. O'z-o'ziga g'o'ng'illab, tushunib bo'lmaydigan qilib gapirmoq. *Tolib aka yana nima balolar deb to'ng'illadi.* (F. Musajonov)

Norozilik ohangi bilan, qo'rs gapirmoq. – *Kul, ha, kul! Senga shunaqa kulgu bo'lsa! – to'ng'illadi Suvonjon.* (S.Anarboev)

Vaqillamoq ko'chma ma'nosi bilangina nutq fe'li bo'la oladi. Aks holda biologik holatni, ya'ni qurbaqa tovushiga taqlidan hosil bo'lgan fe'lni anglatadi. *Hovuzda qurbaqa vaqillaydi, nodon – davrada* (Maqol).

Bo'lar-bo'lmas, be'mani gaplar gapiradigan holatga ko'ra qo'llanadi. *Ko'p vaqillayverma! Ko'rib turibsan-ku, bola esini tanib olsin-chi.* (B.Rahmonov)

Vaysamoq salbiy ma'noli nutq fe'li “e'tiborga loyiq bo'lmagan, keraksiz bema'ni gaplar”ni gapirishga nisbatan qo'llanadi. *Yuz-ko'zini soqol bosgan mulozim eshkak eshar ekan, tinmay vaysardi.* (M,Osim)

Bobillamoq, bobillab bermoq nutq fe'llarini “ovozi boricha baqirib urishib bermoq, koyimoq” ma'no ifodasiga ega. *Kokila labi-labiga tegmay bobillab berdi.* (S,Ahmad).

Vaqillamoq, vaqirlamoq nutq fe'llari baqirib, shovqin solib gapirish holatiga ko'ra qo'llanadi. Bu fe'llardan vaqillamoq fe'li turli predmetlarga nisbatan ham qo'llanishi bilan xarakterlanadi. Misollarni kuzatamiz:

Buldozerlar biri olib, biri qo'yib vaqillaydi (O'.Usmonov).

Teshaboyning doim og'zi gapda, vaqillagani voqillagan (Oybek).

So'zlamoq, gapirmoq, aytmoq, demoq, so'ramoq kabilar bo'yoqdorlik nuqtayi nazardan betaraf so'zlar hisoblanadi.

Qichqirmoq, baqirmoq so'zlarining nutq fe'llari tarkibiga kiritilishi nisbiyroq. Chunki “U ovozi boricha baqirdi, qichqirdi” misolida nutq fe'li haqida gapirish o'rinli emas. Bu so'zlarning nutq fe'li bo'lishi uchun ma'lum bir nutqiy sharoit kerak bo'ladi. Masalan: Olaxo'ja tovushining boricha baqirdi: - *A? Targ'il ho'kiz o'lib qoldi?* (P.Tursun)

Hayqirmoq, ayqirmoq soʻzlarini paronimlar sirasiga kiritish mumkin. *Hayqirmoq* soʻzi asosan inson tovushiga koʻra ishlatiladi:

Hayqiraman togʻlar bagʻridan,

Gumbirlagan sado keladi,

Ona yerning otash qahridan

“Oʻgʻlim”, - degan sado keladi. (E.Vohidov)

Hayqirmoq soʻzi koʻchma maʼnoda jonsiz narsalar tovushiga nisbatan ham qoʻllana oladi: *Daryo ostida hayqirib, paravozday qichqirib, soy oqmoqda.* (H.Nazir)

Ayqirmoq soʻzi esa inson tovushiga nisbatan ishlatilmaydi. Bu soʻz asosan sharqiroq soy, daryo oqishiga taqlidan qoʻllanuvchi soʻz sanaladi: *Koʻprik ostidan ayqirgan daryo oqib turardi.* (Gazetadan)

Umuman, nutq feʼllari maʼno imkoniyatlariga koʻra serqirra boʻlib, ularning koʻpchiligi bir necha maʼno ifoda etishi bilan xarakterlanadi. Nutq feʼllari oʻziga xos tadqiqot obyekti boʻla oladi.

II.3.3. Natijali faoliyat feʼllarining maʼno xususiyati

Feʼlning maʼno jihatdan yana biri natijali faoliyat feʼli sanaladi. “Natijali faoliyat feʼllari” mavzusini barcha darslik, qoʻllanmalarda ham uchratavermaymiz. Buning sababi, bizningcha, ushbu mavzuning chegarasi qatʼiy emasligidan boʻlsa kerak. Natijali faoliyat feʼllari nisbatan shartli. Aniqroqi, mazkur guruhga kiritilgan soʻzlarning chegarasini belgilovchi qatʼiy meʼzon mavjud emas. Bunga sabab feʼlning polisemantik xususiyati. Yaʼni natijali faoliyat feʼllari deb baholanadigan soʻzlar matn tarkibida baʼzan holat, baʼzan harakat feʼllari boʻlib keladi. Masalan, *boʻyamoq, buzmoq, qurmoq, egmoq, arralamoq* kabilar oʻrni bilan harakat feʼllariga ham mansub boʻla oladi. Mana shu sabab boʻldiki, mazkur mavzu dasrliklarning keyingi avlodlaridan oʻrin ololmadi.

Natijali faoliyat feʼllari oʻz nomidan maʼlum boʻladiki, biror ish harakatning natijasini, oqibatini ifodalashga xizmat qiladi. Natijali faoliyat feʼllarini ham bir necha LMGga boʻlib talqin etish mumkin:

Biror inshootni qurish bilan bog'liq fe'llar: *qurmoq, bino qilmoq, barpo qilmoq, bunyod qilmoq* va q.

Biror inshootni buzish bilan bog'liq fe'llar: *yiqlamoq, buzmoq, yo'q qilmoq, kunpayakun qilmoq* va h.k.

Bu ikki LMG o'zaro zidlanadi. Yuqoridagi LMGlarni qurshov so'zlari sifatida *yasamoq, asos solmoq, nomud qilmoq, sop qilmoq* kabilarni keltirish mumkin. Bularda polisemiya rivojlanganligiga guvoh bo'lish mumkin.

Darslikda natijali faoliyat fe'llari sifatida *yumaloq qilmoq, silliq qilmoq, yapaloq qilmoq, sayqal bermoq, bo'yamoq, bukmoq, tozalamoq, parchalamoq, sirlamoq, pardozlamoq, yutmoq, yemoq, o'chirmoq, sindirmoq, egmoq, sipqormoq* kabilar ham keltirilganligiga guvoh bo'lamoq[17].

Natijali faoliyat fe'llari ishlatilish doirasi, uslubiy bo'yoqdorligiga ko'ra farqlanadi. *Qurmoq, bino qilmoq, barpo qilmoq, bunyod qilmoq* bir umumiy ma'no ostida birlashsada, xususiy ma'nolari bilan farqlanadi. *Qurmoq* natijali faoliyat fe'li bir necha ma'no ifodasiga ega. Birinchi ma'nosiga ko'ra ushbu so'z "qurulma, qurilish inshooti, bunyod etmoq, yasamoq" ifoda semasiga ega: *qasr qurmoq, uy qurmoq* kabi. *Tandir qurmoq, uyga eshik qurmoq* misollarida esa "o'rnatmoq" ma'nosiga ega bo'ladi. Yangi jamiyat qurmoq, turmush qurmoq kabilarda esa ko'chma ma'noni ifodalaydi.

Bunyod etmoq fe'li bunyod so'zi ma'nosi bilan bog'liq. Bu so'z o'z navbatida *barpo etmoq, barpo bo'lmoq* so'zlari bilan ma'nodoshlik hosil qiladi. *Barpo* fors-tojikcha so'z bo'lib, "barqaror, turg'un, qurilgan" ma'nosiga ega.

Asos solmoq fe'li asosini yaratmoq, yuzaga keltirmoq tarzidagi ma'nolar tashkil etadi. Xarakterli jihadi shundaki, bu so'z asosan ko'chma ma'noda qo'llanadi. Masalan: *yangi yo'nalishga asos solmoq* kabi.

Bo'yamoq so'zi to'rt ma'no ifodaga ega [36,425]. *Ko'zini bo'yamoq* jumlasida mazkur so'z ko'chma ma'noda keladi.

Parchalamoq natijali faoliyat fe'li ham to'rt ma'no ifodasiga egaligi bilan xarakterlanadi. Bu so'z ko'chma ma'noda "yo'q qilib yubormoq, yo'qqa

chiqarmoq, mahv etmoq, tugatmoq” kabi ma’nolarga ega. *Zulmat tunin parchaladi nurli quyosh (G’ayraty)* misolida buni ko’rish mumkin.

Umuman, natijali faoliyat fe’llari ish-harakat natijasi o’laroq yuzaga keladigan jarayonni ifoda etish uchun qollanadi. Natijali faoliyat fe’llari, odatda, qo’shma fe’l shaklida keladi. Natijali faoliyat fe’llarining aksariyati polisemantik so’zlar hisoblanadi. Ulardagi sinonimik qatordagi a’zolar orasida uslubiy farqlanish yuqori[35].

II.3.4. Tafakkur fe’llarining ma’no xususiyati

Tafakkur fe’llari sirasiga *o’ylamoq, fikrlamoq, xayol surmoq, xayoliga keltirmoq, hukm chiqarmoq, gavdalantirmoq, tasavvur qimoq, ko’z oldiga keltirmoq* va h.k.lar misol bo’ladi. Mzkur fe’llar ham bir necha ma’no ifodasiga egaligi bilan alohidalik hosil qiladi.

Tafakkur fe’llarining ma’no xususiyati natijali faoliyat fe’llari kabi keng emas. Bu ushbu so’zlarning ishlatilish doirasining nisbatan torligi bilan bog’liq.

O’ylamoq fe’li “fikir-mulohaza yuritmoq, fikrlamoq” kabi ma’noda kengroq qo’llanadi: *O’ylamay qilingan ish boshga keltirar tashvish.*(Maqol) Bu so’z *xayolidan kechirmoq, xayol qimoq, yodga olmoq, esga keltirmoq* kabi bir qator ma’no ifodalarga ega.

Fikrlamoq fe’li umumiy ma’noda *o’ylamoq* so’zi bilan teng kelsa-da, ma’no nozikliklari bilan farq qiladi. Bu so’z “biror kimsa, narsa yoki hodisa, jarayon haqida muayyan bir xulosaga kelish maqsadida mulohaza yurutmoq” tarzidagi ma’nosi bilan farqlanadi.

Gavdalantirmoq fe’li “xayolan ko’z o’ngiga keltirmoq, nazarida paydo qilmoq” ifoda semasiga ega.

Xayol surmoq, xayoliga keltirmoq, xayolidan o’tkarmoq, xayolga botmoq fe’llari ot+fe’l shaklidagi qo’shma fe’llar sanaladi. Bular asosan badiiy uslubda qo’llansa, *o’ylamoq* tafakkur fe’li so’zlashuv uslubiga xosdir. *O’y surmoq, o’yga botmoq* kabilar ham badiiy uslubda qo’llanadi.

Tafakkur qilmoq fe'li o'ylash, fikrlash, muhokama qilish ma'nolari bilan bog'liq. Bu so'z ba'zida tafakkurga cho'kmoq shaklida ham qo'llanadi. *Malika bir nuqtaga qarab tafakkurga cho'kdi.* (T.Jalolov)

Kuzatishlar ko'rsatadiki, tafakkur fe'llari son jihaddan oz. Ular ham natijali faoliyat fe'llari kabi ko'pincha qo'shma shaklda uchraydi. Tafakkur fe'llari qatorida bir-birini o'rnida qo'llanuvchi so'zlar ko'p uchraydi. Ular ma'no imkoniyatlari, ishlatilish doirasi, ishlatilish unumdorligi, uslubiga ko'ra o'zaro farqlanadi. Bu holat asosan matnda reallashadi.

II.3.5. Holat fe'llarining ma'no xususiyatlari

Holat fe'llari fe'lning ma'no jihatdan eng katta turi hisoblanadi. Holat fe'llarini yoritishda ularning ma'no tabiati, izohli luqatlardagi ifodasiga kengroq to'xtalishga zarurat bo'ladi. Chunki holat fe'llari tarkiban murakkab. Ko'pgina harakat yoki boshqa turdagi fe'l bir ma'nosi bilan holatlik belgisiga ega bo'lishi mumkin.

Holat fe'llari fe'lning ma'no jihatdan eng katta turi hisoblanadi. Holat fe'llarini yoritishda uning ma'no tabiatiga kengroq to'xtalishga to'g'ri keladi.

Holat fe'llarining ma'no tarkibini belgilashda, asosan, lingvistik-semantik nazariyaga, uning diferensial-semantik tahlil qilish usuliga tayanish ular bilan bog'liq ko'p ma'nolilikni keragicha ochib berishga yordam beradi.

Diferensial-semantik tahlil qilish usuliga tayanish holat fe'llarining ma'no tarkibini tahlil qilishda mushtarak (arxisema), birlashtiruvchi (integral) semalarni to'laqonli yoritish imkonini beradi.

O'zbek tilida holat fe'llari ma'nosini tarkibiy qismlarga ajratib o'rganish natijasida bu semantik maydonning quyidagi ma'no guruhlariga ajratilganligini kuzatdik:

- davomli holat fe'llari
- harakat natijasi holat fe'llari
- ijro holat fe'llari
- harakatning holati fe'llari
- malaka holat fe'llari

- obrazli holat fe'llari
- biologik holat fe'llari
- fizologik holat fe'llari
- psixik holat fe'llari.

O'zbek tilida davomli holat fe'llari nisbatan ko'p. Ayrimlarini tahlilga tortamiz.

Joylashmoq. Bu fe'l bir nech ma'noga, ya'ni turmoq, o'tirmoq, yotmoq, qolmoq kabi ma'no ifodaga ega. Bu so'z muayyan holatdagi kishi, hayvon, narsa-hodisaning muayyan o'rinda (sathda) joylashishiga, chegaralangan davomiy aloqaga kirishishiga nisbatan ishlatiladi.

Mazkur so'z matnda ko'chma ma'noda ham kela oladi. Masalan, *Sening surating qalbm to'rida joylashganiga ko'p yillar bo'ldi* (H. Nazir) misolida buni kuzatish mumkin.

Turmoq fe'li – bosh ma'nosiga ko'ra tik va oyoqqa tayangan holda bo'lmoq ma'nosidadir: *Teshaboy ayvon ustuniga suyanib uzoq turib qoldi.*(M.Ismoilij) *Turmoq* o'z ma'nosidan tashqari bir necha ma'noda keladi. Masalan: *Bulutlarga yondosh osmon ostida kiprikdagi yoshday turibdi dorboz.* (A.Oripov)

Turmoq fe'li “o'nashib kun o'tkazgan holatda bo'lmoq” ma'nosida ham kela oladi: *U qiz ham shu yotoqda turadi.* (O.Yoqubov)

O'tirmoq – “Qaddini tik tutib dumg'ozaga tayangan holda bo'lmoq ma'nosida” asl ma'no sanaladi: *Yig'ilish zalida taniqli olimlar, yozuvchilar o'tiribdi.*(“Guliston”) *Ikkovi ham indamay o'tirardi.* (“Layli va majnun”) Keyingi gapdagi *o'tirmoq* so'zi ma'no taraqqiyotga uchraganligiga guvoh bo'lamiz.

Otirmoq so'zi mahbuslikda kun o'tkazmoq holatida bo'lmoq ma'nosida ham keladi: *Hozir shahar jandarm turmasida yigirmadan ortiq mahbus o'tiribdi.* (M.Ismoilij)

Yotmoq – gorizontol holatda bo'lmoq: *Mana bugun ham Mansur o'z o'rtog'i Slavka bilan qirg'oqqa yotibdi.* (Shuhrat) *Ona tuproq oromda yotar.* (Zulfiya) misolida esa yotmoq so'zining ko'chma ma'noda kelishi kuzatiladi..

Yotmoq – ma’lum jarayonda kun o’tkazmoq ma’no qirrasiga ham tga: *Boy bir hafta uyida alahlab yotardi.*(S.Yunusov)

Qolmoq – o’z ornida joylashgan holda bo’lmoq: *Supada yolg’iz qoldim.* (N.Fozilov) *Qolmoq* so’zining ko’makchi fe’l vazifasida kelishi uning ma’no taraqqiyotidan dalolat beradi. Shuningdek, *o’yinda qolmoq* misoli ham bu so’zning ma’no imkoniyati kengligidan dalolat beradi. *Qolmoq* so’zi ilgarigidek holatda bo’lmoq ma’nosida ham keladi: *Yana men yolg’iz qoldim.* (S.Ahmad)

Harakat natijasi bo’lgan holat fe’llari ham semantik tabiatiga ko’ra boy. Bunday fe’llar o’z navbatida ikkiga bo’linadi:

a) harakatdan biri to’la holatga o’tishini ifodalovchi fe’llar;

b) harakat natijasida bir holatdan ikkinchi holatga o’tishni ifodalovchi fe’llar. Masalan, *to’xtamoq* fe’li mutlaqo harakatsiz holga o’tmoq ma’no ifodasi bilan o’z ma’nosida bo’ladi: *Saf taqqa to’xtadi.* (A.Qahhor) Mazkur so’z yuragi urishdan to’xtamoq, fikrlashdan to’xtamoq, kino ko’rishdan to’xtamoq ma’nolarida qo’shimcha ifoda semasini anglatadi. Yana bir misol: *Oliy o’quv yurtlarida o’qishlar to’xtagan.* (Gazetadan)

Tinmoq. Bu fe’l harakatdagi predmetning harakatsizlikka, muayyan holatga to’la o’tishini ifodalaydi. *Tinmoq* – tinchlangan holga o’tmoq: *Tongga yaqin qor tindi.* (E.Vohidov) *Keyin to’satdan shamol tindi.* (O’.Hoshimov) Ba’zan tin so’zi - til birligi nutqda -chi qo’shimchasi bilan, ya’ni *tinchimoq* shaklida keladi. *Tinchimoq* so’zi asta bosilgan holga o’tmoq ma’nosida ham keladi: *Akbar aka arang sinfni tinchitdi.* (F.Musajonov)

O’chmoq – tezda yo’qolgan holatga o’tmoq. *Dadam tutunni darrov o’chirdi.* (A.Qahhor) *O’chmoq* so’zi ko’chma ma’noda kelsa ham, o’zining asl ma’nosi yaqqolroq ifodalanishiga guvoh bo’lamiz: *Alimardonning ko’zlaridagi tabassum darrov o’chdi.* (O’.Hoshimov) *O’chmoq* so’zi ko’chma ma’noda kelganda, *so’nmoq* so’zi bilan sinonim bo’lib keladi.

Ijro holati fe’llari ijro natijasi bo’lgan holatni ifodalaydi. Holat ijrosining natijasi, holati bo’lib kuzatiladi. Ijro va holat munosabatida ijro

holatning yuzaga kelishida asos, holat esa asoslanuvchi sanaladi.

O'qtalmoq. Otishga tayyor holatda bo'lmoq: *Bo'ronbek to'pponchasini yalang'ochlab ota-bolaga o'qtaldi.* (G.Gulom) Mazkur so'z ko'chma ma'noda ham keladi: Bir gap gapiradigan bo'lsa, to'rt barmog'ini birlashtirib, o'qtalib so'zlaydi. (Sh.Shomaqsudov)

Poylamoq so'zi ko'pincha qo'shimcha ma'no ifodasini namoyon qiladi. Holat fe'lining bu turi o'z m'nosida "kutgan, kuzatgan holda bo'lmoq" ma'nosida keladi: *La'li bosh og'rig'i bahonasi bilan chiroqni o'chirib cholning chiqib ketishini poyladi.* (G.Gulom) *U kun bo'yi amir Jondorning yolini ko'zi to'rt bo'lib poyladi.* (O.Yoqubov)

Ижпо holatini ifodalovchi *ehtiyotlamoq, saqlamoq, asramoq*, kabilar ham bir qator ma'no ifodalariga ega.

Harakatning holatini ifoda etuvchi fe'llar ham anchagin [26]. Ularning tub, yasama fe'llardan tashkil topgani kuzatiladi.

Masalan, *osonlashmoq* so'zi oson holatga o'tmoq ma'no ifodasiga ega bo'lib, ko'pincha badiiy uslubda ishlatiladi: *Saidiy mag'lubiyatga uchrasa, Abbosxonning ishi ancha osonlashar edi.* (A.Qahhor)

Yengillashmoq – yengil holatga o'tmoq: Yuragi qandaydir dalda sezib, nafasi yengillashdi. (A.Muxtor)

Kuchaymoq holat fe'li *zo'raymoq* so'zi bilan ko'pincha sinonim bo'lib keladi. Ular qo'shimcha ma'nolariga ko'ra o'zaro farqlanadi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da *zo'raymoq* so'zining ikki ma'nosi izohlangan: 1. Kuchliroq bo'lib bormoq, kuchaymoq. 2. Og'irlashmoq, yomonlashmoq. Kuchaymoq ma'nosi esa shu manbada quyidagicha izohlanadi: *ta'sir darajasi yuqorilashmoq, tus olmoq, avj olmoq, zo'raymoq.*

Kuchaymoq va *zo'raymoq* ma'nolariga berilgan izohlardan ma'lumki, ikkala til birligi harakat darajasining miqdori oshib, kuchaygan, avj olgan, kuchli darajaga o'tgan paytini ifodalaydi.

Tezlashmoq – jadal holatga o'tmoq: *Gullarning ko'saklarga aylanishi tezlashyapti.* (Gazetadan) Shabada ham tezlashib, bolalarning sochlari va

galstuklari bilan tinmay o'ynashmoqda. (H.Nazir)

Miqdor ma'nosining kamayish holatini ifoda etuvchi holat fe'llariga *kamaymoq, ozaymoq, susaymoq, sustlashmoq, sekinlashmoq, pasaymoq, bo'shashmoq* kabilar. Ushbu so'zlar ham bir qator ma'no imkoniyatlariga ega [26].

Ruhiy harakat-holat ifoda etuvchi fe'llar guruhiga *zerikmoq, ishonmoq, erinmoq, og'rinmoq, tutinmoq, qizg'anmoq, dahshatlanmoq, qizg'anmoq, chidamoq* va h.k.lar kiritiladi [26].

Obrazli holat fe'llari ta'sirchanlikni, his-tuyg'u ifodalashi, inson ruhiyatida qanday shakldagi ta'sirchanlikni hosil qilishiga ko'ra turlichadir [26].

a) ta'sirchanlikni ifodalashiga ko'ra betaraf bo'lgan obrazli holat fe'llari: *uxlamoq, qotmoq, gavdalanmoq*;

б) ijobiylik bo'yog'iga ega ta'sirchanlik ifodalovchi holat fe'llari: *oltinlanmoq, jilolanmoq, tovlanmoq*;

в) salbiylik bo'yog'iga ega ta'sirchanlik ifodalovchi holat fe'llari: *huvillamoq, shumshaymoq, so'lmoq*.

Xullas, holat fe'llarini kuzatish davomida quyidagi kabi xulosalarga kelindi. Holat fe'llari fe'lning ma'no jihatdan katta guruhi sahaladi. Ular inson, hayvon, narsa, voqea-hodisalarning harakatida kuzatiladi. Holat fe'llari tub va yasama shaklda uchraydi. Asosiysi, bu kabi fe'llar guruhi polisemiyaga boy.

Xulosa

Fe'ning ma'noviy guruhlanishi hozirgi kun ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida o'z aksini topganligida kuzatiladi. Bu hol mazkur turkumni chuqurroq o'rganishda qo'l keladi. Fe'l o'zining ma'no qirralari, uslubiy imkoniyatlari bilan o'ziga xos o'rin egallaydi. Ma'no serqiralik borasida fe'l boshqa so'z turkumlari orasida yetakchilik qiladi desak, yanglishmaymiz. Mazkur fikrimizni izohli lug'atlar ham tasdiqlaydi. Fe'ning nozik ma'no ifodasi, qo'shimcha semalar anglata olishi, ularning matnlarda o'z ifodasini topganligi ham bu turkum so'zlarining serjiloligi, keng ma'no imkoniyatlari bilan boqliq`.

O'rni kelganda aytish joizki, tilda shunday murakkab tizimlar mavjudki, ularni o'rgangan sari yangi-yangi qirallari yuzaga chiqaveradi. Mana shunday tizimlardan biri fe'ning ma'noviy guruhlari va uning ma'no imkoniyatlaridir. Fe'ning turli ma'no imkoniyati shu fe'ning tadrijiy rivoji bilan uzviy bog'liq. Mazkur so'z turkumining boshqa so'z turkumlariga nisbatan keng ma'no imkoniyatlarini quyidagilar bilan izohlash mumkin:

1. Fe'l dastlabki so'z turkumlaridan biri. Bu so'zlar uzoq tarixiy, rivojlanish bosqichini o'tagan. Shuning uchun ulardagi ma'no imkoniyat, qo'shimcha ma'no ifodalar miqdoran oshgan.

2. Fe'l so'zlarning aksariyati o'z qatlamga oid, ya'ni umumturkiy. Ma'lumki, o'zlashma so'zlarga qaraganda o'z qatlam so'zlarida ma'no ifoda boy va serjilo bo'ladi.

3. Fe'llarning kundalik turmushda, aniqrog'i, aloqa-aralashuvdagi qo'llanish darajasi faol bo'ladi, faol so'zlar guruhida fe'l asosiy mavqeda turadi. Bu ham mazkur so'zlarning ifoda planini kengaytirgan, deb xulosa chiqarishimizga asos bo'la oladi.

4. Fe'l so'zlardan nutqning aloqaviy sifatlarini to'laqonli ta'minlashda keng foydalanish mumkin. Nutqning aloqaviy xususiyatlaridan sanalgan obrazlilik, ifodaviylik, mantiqiylik, ta'sirchanlikni ta'minlashda bevosita fe'l so'zlar ham o'ta faol qo'llana olishini kuzatdik. Mazkur hol fe'l uslubiyatini ta'minlaydi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, fe'llarda qo'shimcha ma'no imkoniyat, polisemiya rivojlangan. Afsuski, polisemiya hodisasiga oid manbalarda mazkur hodisaga misol tariqasida ko'pincha ot turkumiga doir misollar keltiriladi. Vaholanki, tadqiqot davomida fe'l sozlarning qo'shimcha ma'no imkoniyatlarining miqdor jihatdan ko'pligi kuzatildi.

Nutqimizda shunday fe'llar borki, qaysi biri asl ma'no, qaysisi qo'shimcha ma'no ekanligini farqlash ham qiyin bo'lib qolgan. Bu ham fe'l so'zlarning qadimiyligi bilan bog'liq. Masalan, *ochiq fikr* jumlasida *ochiq* so'zi ko'chma ma'noda kelganligi aniq, biroq *ochiq kitob* misolida *ochiq* so'zining asl yoki ko'chma ma'noda kelganini aniqlash qiyin. Bu ham fe'lning murakkab ma'no ifodalari bilan bog'liq.

Fe'l so'zlarning ma'no turlarga bo'lib, so'ng ularning ifoda imkoniyatlarini tadqiq qilish ancha qulay. Shu bois ishimizda fe'l so'zlarni ma'noviy guruhlar kesimida tadqiq etdik. Fe'lning ma'noviy guruhlarini tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Biroq muayyan bir fe'lning bir ma'no qirrasini bilan bir guruga, ikkinchi ma'no qirrasini bilan boshqa bir guruhga mansub ham bo'la olishi tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qolgandek, nazarimizda. Masalan, *parvoz qilmoq* misoli lug'viy ma'no guruhiga ko'ra harakat fe'li sanaladi. Biroq *ilm osmonida parvoz qilmoq* misolida *parvoz qilmoq* fe'li holat fe'li bo'lib keladi. Ko'rinadiki, fe'lning ma'no jihatdan turlari shu so'z turkumining polisemiyasi bilan ham bog'liq. Shu sababli ishimizda fe'lning ma'no jihatdan turlarga bo'lish nisbiy hodisa ekanligiga ham e'tibor qaratdik, misollar bilan dalilladik. Fe'llarning ma'no guruhlarini yana ichki guruhlariga bo'lishni ham talab etishi mumkinligiga kuzatishlar davomida guvoh bo'ldik.

Xullas, fe'l so'zlarning keng ma'no imkoniyatlari, semantik tuzilishi bu turkumning uslubiy imkoniyatlarini ham ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. Каримов И. Ўзбекистон буюк келажак сари. –Тошкент: Ўзбекистон, 1998. 686 б.
2. Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. 176 б.

II. Ilmiy risola, darslik va o'quv qo'llanmalar

3. Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Морфология ва синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1973. 320 б.
4. Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. –Тошкент: Ўқитувчи, 1982. 168 б.
5. Абдурахмонов Ғ. Қадимги туркий тил. –Тошкент: Ўқитувчи, 1989. 160 б.
6. Абузалова М.Қ. Ҳозирги ўзбек тили. Морфология. Ўзбек филологияси бакалавриат йўналиши учун ўқув-методик қўлланма. Бухоро, 2005. 140 б.
7. Асадов Т. Сўз туркумлари тизимида равиш. Монография. – Тошкент: Мухаррир, 2010, 132 б.
8. Дмитриев Н.К. Строй тюркских языков. – Москва: Изд. Восточной литературы, 1962, 607 с.
9. Ҳозирги замон ўзбек адабий тили. Ф.Камол таҳрири остида. –Тошкент: Фан, 1957. 470 б.
10. Ҳожиёв А. Ўзбек тили сўз ясаиш тизими. – Тошкент. Ўқитувчи, 2007, 165 б.
11. Кошғарий М. Девону луғотит турк. 1-том. –Тошкент, Фан, 1960. 485 б.
12. Маҳмудов Н. ва б. Она тили. 6-синф учун дарслик. – Тошкент. Маърифат, 2013, 201 б.
13. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. –Тошкент: Ўқитувчи. 1995. 166 б.

14. Маматов Н. Ўзбек тилида қўшма сўзлар. –Тошкент. 1982. 112 б.
15. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1995, 166 б.
16. Мирзаев М. Ҳозирги замон ўзбек тили. Машқлар тўплами. – Тошкент, 1963. 143 б.
17. Ne'matov N. va b. Ona tili. 6-sinf uchun darslik. –Toshkent, O'qituvchi, 2000, 192 b.
18. Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. 128 б.
19. Нигматов Х. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI–XII вв. – Ташкент: Фан, 1989. 190 с.
20. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. – Тошкент: Шарқ, 2001. 164 б.
21. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослигининг тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. 237 б.
22. Нурмонов А. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Лицей талабалари учун дарслик. –Тошкент. Шарқ. 2002, 350 б.
23. Олимов М. Рисолаи сарф ёки анъанавий морфология. Ўқув-методик қўлланма. – Тошкент: Фан, 2003. 111 бет.
24. Қиличев Э. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Бакалавр – ўзбек филологияси ихтисослиги учун қўлланма. Бухоро: 2005. 228 б.
25. Қиличев Э., Қиличев Б. Нутқ маданияти. – Тошкент: Фан, 2001. 124 б.
26. Расулов Р. Ўзбек тили феълларининг маъно тузилиши. –Тошкент. 2005. 142б.
27. Расулов Р. Умумий тилшунослик. –Тошкент. 2005.182 б.
28. Sayfullaeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: 2009. 447 b.
29. Сайфуллаева Р. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Олий ўқув юртлари филология факультетлари талабалари учун дарслик. – Тошкент. 2007, 379 б.

30. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Олий ўқув юртлари филология факультетлари талабалари учун дарслик. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. 339 б.
31. Усмонов С. Умумий тилшунослик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1972. 178 б.
32. Хўжаев Т. "Яхши" типдаги сўзларнинг гапда ҳол вазифасида қўлланишга доир.// А.Навоий номидаги Самарқанд давлат университетининг асарлари. Янги серия, № 102. Самарқанд, 1960. 206-213-бетлар.
33. Ўзбек тили грамматикаси. I том. Морфология. – Тошкент: Фан, 1975. 612 б.
34. Шоабдурахмонов Ш ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. Педагогика институтларининг филология факультетлари учун дарслик. –Тошкент: Ўқитувчи, 1980. 448 б.

III. Lug'atlar

35. Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларнинг изоҳли луғати. Тошкент, "Ўқитувчи", 1974, 307 б.
36. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томли. Тошкент: Ўзб. Мил. Энцикл., 2006–2008.

IV. Ilmiy maqolalar

37. Asadov T., Jo'rayeva D. Harakat, natijali faoliyat, tafakkur fe'llarining ma'no tarkibi. Tilning leksik-semantik tizimi, qiyosiy tipologik izlanishlar va adabiyotshunoslik muammolari materiallar to'plami. VII juzv. –Тошкент: "Navro'z", 2016. 56-59-b.
38. Маҳмудов Н. Ўзбек тилшунослигининг тараққиёти // Ўзбек тили ва адабиёти. 2001.4-сон. 5-7-бетлар.
39. Мамаражабова З. Белги билдирувчи сўзларнинг стилистик хусусиятлари ҳақида. Тил ва адабиёт таълими. 2003, 3-сон, 44-46 б.
40. Нурмонов А. Ўзбек тили назарий морфологиясининг асосий тамойиллари // Ж. Ўзбек тили ва адабиёти. 1998. 2-сон. 7–10-б.

41. Раҳматуллаев Ш. Семема-мустақил тил бирлиги. Ўзбек тили ва адабиёти, Тошкент: 1984, №5, 17-22- б.

42. Тожиев Ё. Айрим аффикслар ҳақида баъзи талқинлар. Ўзбек тили ва адабиёти. 1999, 1-сон. 39-42-б.

V. Dissertatsiya va dissertatsiya avtoreferatlari

43. Исоқов З.С. Ўзбек тилида сўз туркумларининг ўзаро муносабати ва унда юкламаларнинг ўрни. Филол.фанлари номз...дис. автореф. – Фарғона, 2005. 22 б.

44. Мадраҳимов И. Ўзбек тилида сўзнинг серкирралиги ва уни таснифлаш асослари. Филол.фанлари номз... дис. – Тошкент, 1994. 141 б.

48. Мамаражабова З.Н. Ўзбек тилида сифатларнинг коннотатив маънолари. Филол.фанлари номз. ...дис. автореф. Тошкент: 2004. 24 б.

45. Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиш масалалари: Филол.фанлари. докт. ... дис. автореф. – Тошкент: 2000. 56 б.

46. Пардаев З.Н. Ўзбек тилида сифатларнинг семантик-услубий хусусиятлари. Филол. фанлари номз. ... дис. автореф. Самарқанд: 2004. 22 б.

47. Тошалиева С.Н. Ўзбек тилида окказионал сўз ясалиши. Филол. фанлари номз. ... дис. автореф. –Тошкент: 1998. 27 б.

48. Турдибоев Т.Ҳ. Ўзбек тилида ёрдамчи сўзлар конверсияси. Филол. фанлари номз. ... дис. автореф. – Тошкент: 1996. 21 б.

VI. Internet sahifalari

49. www.onatili.uz

50. [www. Tilshunoslik.uz](http://www.Tilshunoslik.uz)

51. www. Ziyo.uz

52. www. Ziyonet.uz

Mundarija

Ishning umumiy tasnifi.....	3
I bob. O'zbek tilida fe'l so'z turkumi.....	6
1.1. Fe'l turkumining o'rganilishi.....	6
1.2. Fe'lning semantik-grammatik tabiati.....	10
I.3. Sodda yasama fe'llarning ma'no imkoniyatlari.....	15
II bob. Fe'lning asosiy lug'aviy ma'no guruhlari.....	18
II.1. Leksemaning semantik tuzilishi xususida.....	18
II.2. Fe'lning y lug'aviy ma'no guruhlarning manbalardagi ifodasi....	22
II.3. Fe'l lug'aviy ma'no guruhlari va ularning qo'shimcha ma'nolari.	26
II.3.1. Harakat fe'llarining ma'no xususiyat.....	27
II.3.2. Nutq fe'llarining ma'no xususiyati.....	29
II.3.3. Natijali faoliyat fe'llarining ma'no xususiyati.....	33
II.3.4. Tafakkur fe'llarining ma'no xususiyati.....	35
II.3.5. Holat fe'llarining ma'no xususiyatlari.....	36
Xulosa.....	41
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	43

